2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 16 (1342), 2025-yil 23-yanvar, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

# IKKI DAVLAT MUDOFAA IDORALARI HAMKORLIGI YANADA MUSTAHKAMLANADI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-yanvar kuni mamlakatimizda tashrif bilan bo‘lib turgan Rossiya Federatsiyasi mudofaa vaziri Andrey Belousovni qabul qildi.**

Uchrashuv avvalida Rossiya mudofaa idorasi rahbari O‘zbekiston yetakchisiga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2024-yil may oyida O‘zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi chog‘ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Qabul qilingan dasturiy va reja hujjatlariga muvofiq, ikki mamlakat mudofaa idoralari hamkorligini kengaytirish muhimligi qayd etildi.

**O‘zA**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.**

# OLIY TA’LIM VA ILM-FAN – MAMLAKAT TARAQQIYOTI TAYANCHI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev oliy ta’lim va ilm-fan sohasidagi ustuvor vazifalarga oid taqdimot bilan tanishdi.**

Mamlakatimiz taraqqiyotining tayanchi sifatida bu yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Yangi oliygohlar ochilib, qamrov ancha kengaydi. Ta’lim jarayonlari sifat jihatidan yaxshilanmoqda.

O‘tgan yili bakalavriat yo‘nalishlari maqbullashtirilib, 1 ming 200 dan ortiq ta’lim dasturlari xorijiy andozalarga moslashtirildi. Jumladan, bitiruvchilarga malaka talabi to‘liq yangilandi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, atrof-muhit muhandisligi, biotizimlar muhandisligi kabi zamonaviy yo‘nalishlar ochildi.

Bu yil ham qator muhim vazifalar belgilangan. Xususan, yana mingdan ortiq ta’lim dasturlari “TOP-300” universitet dasturlari asosida takomillashtiriladi. 45 ta ta’lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkaziladi. Oliygohlarda Registrator ofisi xizmatlari bilan talabalar to‘liq qamrab olinadi. Dual ta’limga yana 50 ming talaba jalb qilinadi.

Oliy ta’limda ilmiy salohiyatni 55 foizga chiqarish, xorijda 5 ming nafar pedagog malakasini oshirish rejalashtirilgan. Ilg‘or muhandislik maktablarini 25 taga yetkazib, sanoat korxonalari bilan loyihalar qiymatini 10 barobar oshirish maqsad qilingan.

Taqdimotda mutasaddilar shu borada amalga oshiriladigan ishlar haqida axborot berdi.

Ma’lumki, oliy ta’limga qabul jarayonida “avval test, keyin tanlov” tamoyiliga o‘tildi. Davlat granti talabalarning iqtidoriga qarab ajratiladigan bo‘ldi. Moliyaviy mustaqillik berilgan 40 ta oliygohda Registrator ofisi tashkil qilindi. Natijada dekanat va bo‘limlarda shtatlar 20 foizga qisqarib, 30 ta xizmat turi raqamlashdi.

Ushbu tajribadan kelib chiqib, shunday ofislarni boshqa oliy o‘quv yurtlarida ham ochish, ta’lim va ilm-fan xizmatlarini qamrab olgan yagona raqamli tizim joriy etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Amaliyot bilan uyg‘unlikni kuchaytirish maqsadida dual ta’lim yo‘lga qo‘yilmoqda. Hozirda 15 ming talaba 957 ta korxonaga biriktirilgan. Lekin korxonalarda bunga qiziqish kam. Shu bois, dual ta’limda ishtirok etayotgan korxonalarni rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar bildirildi.

2024-yil 20-iyunda bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari har bir hududda texnika oliygohi va ilg‘or muhandislik maktablari tashkil qilish vazifasini qo‘ygan edi. Hozirgacha Termiz, Andijon va Qarshida texnika universitetlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, 8 ta muhandislik maktabi ochildi.

Yig‘ilishda Nukus, Buxoro, Farg‘ona va Namangan texnika universitetlarini tashkil etish loyihalari taqdimot qilindi. Unga ko‘ra, yangi yo‘nalishlar ochilib, xorijiy dasturlar tatbiq qilinadi, talabalarning ilmiy-innovatsion jarayonlarda ishtiroki kengaytiriladi, oliygohlarga sanoat hamkorlari biriktiriladi.

Umuman, bu yo‘nalishdagi 35 ta muassasani yiriklashtirish hisobiga 22 ta texnika universiteti tashkil qilinadi. Shu yil oxirigacha yana 17 ta muhandislik maktabi ochiladi.

So‘nggi yillarda oliy o‘quv yurtlarida ilmiy salohiyat 41 foizdan 45 foizga oshgan. Lekin aksariyat ilmiy tadqiqotlar sanoat va ishlab chiqarishdagi zamonaviy tendensiyalarni qamrab olmayapti.

Shu bois, doktorantura kvotasini taqsimlashda iqtisodiyotning drayver sohalariga ahamiyat qaratish, ilmiy daraja va unvonlar olish tartibini takomillashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Pedagoglar kasbiy mahoratini oshirishni yangi bosqichga olib chiqish zarurligi ta’kidlandi.

Yoshlar tarbiyasida axloq va sport ham muhim. Bu borada “Besh tashabbus”, “Ma’rifat ulashib”, “Talabalar sport ligasi”, “Zakovat” kabi harakatlar yo‘lga qo‘yilgan. Bunday ma’naviy-ma’rifiy, sport va intellektual loyihalar bilan talabalarni to‘liq qamrab olish, yoshlarda vatanparvarlik ruhini kuchaytirish tadbirlari yuzasidan axborot berildi.

**O‘zA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

## E.O. TURDIMOVNI SIRDARYO VILOYATI HOKIMI VAZIFASINI BAJARUVCHI ETIB TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga muvofiq, **Erkinjon Oqbutayevich Turdimov** Sirdaryo viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi etib tayinlansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2025-yil 21-yanvar

Mulohaza va taklif

## “YASHIL” BELBOG‘LAR

### ULARNI BUGUN YARATISHIMIZ KERAK, ERTAGA KECH BO‘LADI

**Yer yuzida aholi soni ko‘payishi qator demografik muammolarni keltirib chiqardi, xususan, global isishga olib keldi. Bugun dunyo bo‘ylab havo harorati 1,5 daraja ko‘tarilgani kuzatilmoqda. Shuningdek, qanchadan qancha unumdor maydonlar degradatsiyaga uchrab, ekin ekishga yaroqsiz holga keldi. Chuchuk suv tanqisligi dunyo bo‘ylab sezilmoqda, tuproq sho‘rlanmoqda. Aholi oziq-ovqat tanqisligiga duch kelmoqda. Muzliklar erib, yer ostidagi qazilma boyliklar, energiya manbalari kun sayin kamayib, ayrimlari tugab borayotgani ham haqiqat.**

*Davomi 3-betda*

Prezident tashabbusi amalda

# SAYXUNOBOD TAJRIBASI:

## TOMORQACHILIK ORTIDAN RIVOJLANAYOTGAN HUDUD NAMUNAGA AYLANDI

**Mamlakatimizdagi islohotlar butun mazmun-mohiyati, maqsad-muddaosi bilan “Inson qadri uchun” tamoyili ro‘yobiga asoslangan. O‘tgan qisqa muddatda bu tamoyilga tayanib qilingan ishlar samarasini har bir soha, har bir jabhada ro‘y berayotgan o‘zgarishlarda ko‘rib, bilib turibmiz.**

Keyingi yetti-sakkiz yildagi yangilanishlarga nazar tashlasak, fikrimizni tasdiqlovchi juda ko‘p misollar keltirish mumkin. Aytaylik, bugun mahallamizda ilgari bo‘lmagan tadbirkorlik subyektlari vujudga kelmoqda. Buning ortidan yon-atrofimizdagi ishsizlar ishli bo‘lyapti. Natijada ro‘zg‘origa baraka kirib, hayoti yanada fayzli bo‘lib borayotir.

Yana qaysidir hududda tomorqachilik rivojlanmoqda. Bir parcha tomorqasida mehnat qilib, shuning ortidan uy ko‘tarayotganlar, to‘y qilayotganlar qancha! Bundan ruhlanib, yerga mehr berayotganlar-chi? Eng muhimi, ularning tashabbusi, g‘oyasi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ishlash, mehnat qilish uchun zarur barcha sharoitlar yaratib berilyapti.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ommalashtirilayotgan to‘rt hudud tajribasi odamlarga ana shunday imkoniyatni taqdim etmoqda. Aholini daromadli, ishli qilib, tadbirkorlikka undamoqda.

Jumladan, Sayxunobod tajribasi tomorqadan unumli foydalanish orqali yaxshi daromad ko‘rishni ko‘zlasa, Uychi tajribasida tadbirkorlar va biznes bilan shug‘ullanish istagidagilar bilan manzilli ishlash tizimi yaratilgan. G‘ijduvon tajribasida mahallada vertikal o‘sadigan sanoat binolari tashkil qilinib, ularda xonadonlarda yo‘lga qo‘yilgan, lekin kengayish imkoni bo‘lmagan ishlab chiqarish uchun sharoit yaratilyapti. Tuman darajasida katta loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan Zarbdor tajribasi asosida esa sanoat, savdo, xizmat va zamonaviy agrotexnologiyalar yo‘nalishida drayver loyiha ishlab chiqilishi yo‘lga qo‘yildi.

Odamlarni band, xonadonlarni daromadli qilish, kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan mazkur tajribalar amaliyotga tatbiq etilganiga uncha ko‘p vaqt bo‘lmadi. Shunga qaramay, ular bugun ancha ommalashdi. Odamlar, tadbirkorlar tajribalar ahamiyatini anglab yetdi. Nafaqat tushunib yetdi, balki ushbu yo‘nalishlarda amaliy ishlarni boshlab yuborganlar ham talaygina.

Shu bois, “Yangi O‘zbekiston” gazetasida ushbu tajribalar samarasini o‘z hayoti misolida his etayotgan yurtdoshlarimiz faoliyati haqida turkum maqolalar berib borishga qaror qildik. Gazetamizning bugungi sonidan joy olgan maqolalar Sayxunobod tajribasiga bag‘ishlanadi.

**Tahririyat**

*4-,5-sahifada o‘qing.*

www.yuz.uz — yuz.uznews — yuz_official — yuz.uz_news — yuz.uz

Davlat dasturi loyihasi muhokamada

# MASOFADAN TURIB ISHLASH HAMDA MOSLASHUVCHAN ISH REJIMI

## ZAMONAVIY MEHNAT USULLARI HAM ISHCHI, HAM ISH BERUVCHIGA NAF KELTIRADI

**Milliy rivojlanishdagi har qanday davlat yangi davrga dadil qadam qo‘yishda, avvalo, shu vaqtgacha erishgan yutuq va kamchiliklarini tahlil va sarhisob qiladi, oldida turgan katta marralarga yetish uchun taraqqiyot yo‘lining ustuvor yo‘nalishlarini qat’iy belgilab oladi. Prezidentimizning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasi uchun e’lon qilingani zamirida ham ayni shu maqsad mujassam.**

**Amirtemirxon MUSAYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari**

Ta’kidlash joizki, davlat organlari faoliyati samaradorligi va natijadorligini ta’minlash, ularda inson resurslarini rivojlantirish hamda tizimga eng salohiyatli kadrlarni jalb qilish borasida yagona kadrlar siyosatini muvofiqlashtirishga vakolatli organ sifatida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etilib, sohada qator ijobiy qadamlar tashlandi.

Xususan, dastur loyihasida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va xo‘jalik birlashmalari rahbarlik lavozimlari uchun kompetensiya modelini hamda professional kompetensiyalarni baholash tizimini joriy etish ko‘zda tutildi.

### Yangi tizim nimalarni va’da qiladi?

Zamonaviy chaqiriqlar — raqamli transformatsiya, globallashuv, raqobat kuchayishi va jamiyatning ortib borayotgan talablari davlat xizmatchilaridan yuqori malaka, e’tibor va tez o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatini talab etmoqda.

O‘zbekiston zamonaviy va samarali davlat boshqaruv tizimini yaratishga intilib, xalqaro tajribani faol joriy etmoqda va davlat xizmatchilari kompetensiyasini rivojlantirishning o‘ziga xos modellarini ishlab chiqmoqda.

Bu jarayonda markaziy o‘rin kadrlar tayyorgarligini oshirish sifati, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish hamda yangi boshqaruv va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarga tegishlidir.

2022-yildan Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan vazirlik va idoralar, hududiy boshqaruv organlari bilan xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda davlat fuqarolik xizmatchisining kompetensiya modeli ishlab chiqila boshladi.

Mazkur kompetensiya modelini ishlab chiqishda anketalashtirish metodikasi qo‘llanildi. Yuqori va o‘rta bo‘g‘in rahbarlari, vazir o‘rinbosarlari, departamentlar, boshqarma va bo‘limlar rahbarlari orasida 350 nafardan ortiq kishidan anketalar olindi. Shuningdek, viloyatlar hokimlari o‘rinbosarlari va 50 dan ziyod tuman (shahar) hokimlari bilan intervyu o‘tkazildi.

Tahlil natijalari asosida davlat fuqarolik xizmatchilarining samarali faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan 10 ta muhim kompetensiyadan iborat model ishlab chiqildi. Liderlik, natijaga yo‘naltirilganlik, strategik fikrlash, maqsadlarni belgilash, muammolarni hal qilish, o‘zgarishlarni boshqarish, qabul qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik qobiliyati shular jumlasidandir.

Ishlab chiqilgan kompetensiya modeli davlat xizmatchilari malakasini oshirish kurslari uchun o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda asosiy yo‘nalish sifatida xizmat qiladi.

### Rahbar kadrlarning professional kompetensiyalarini baholash tizimi joriy qilinadi

Bugun zamonaviy texnologiyalar asosida rahbar kadrlarning faoliyati, bilimi va ko‘nikmalarini baholash, natijalarni tahlil qilish va boshqarish imkoniyatlarini yaratishga ehtiyoj bor. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi qarori bilan Rahbar kadrlarni baholash markazi tashkil etildi.

Kelgusida ushbu markaz:

— davlat fuqarolik xizmatchilari uchun faoliyat yo‘nalishlari va lavozimlar iyerarxiyasiga qarab kompetensiya modellarini ishlab chiqish, ular doirasida samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlarini belgilash;

— ishlab chiqilgan kompetensiya modeli asosida davlat fuqarolik xizmatchilarini baholash uchun kompleks shaxsiy-kasbiy diagnostika o‘tkazish;

— kompetensiyalarni baholash natijalari asosida davlat fuqarolik xizmatchilari shaxsiy-kasbiy rivojlanishining individual yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

— kompetensiyalarni baholashning yangi usullarini yaratish va joriy etish, baholashga doimiy ravishda zamonaviy yondashuvlarni yangilash va amaliyotga joriy etish;

— davlat xizmatiga nomzodlarni baholash, kasbiy bilimlar, qadriyatlar va intellektual salohiyatni test sinovlari orqali baholash, shuningdek, rahbarlik lavozimlariga nomzodlar uchun psixologik so‘rovlar tashkil etish;

— kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarni monitoring qilish va prognozlash, oldindan aniqlash hamda xodimlarni tanlash va tayinlash jarayonlarini boshqarish yo‘nalishlarida ish olib boradi.

### Malakali kadr — samaradorlik va natijadorlik garovi

Davlat xizmatini rivojlantirish uchun, avvalo, davlat xizmatchilarini rivojlantirish zarur. Buning uchun ularning kasbiy malakasini muntazam oshirish talab etiladi.

2021-yildan 2024-yilgacha 400 dan ortiq o‘quv kursi va trening tashkil etildi, ularda 166 mingdan ziyod davlat xizmatchisi ishtirok etdi.

2024-yil davomida Milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan 1166 nomzod, istiqbolli kadrlar zaxirasiga kiritilgan 494 nomzod, vazirlik va idoralarning markaziy apparatlarida ishlayotgan 807 tuzilma rahbari, o‘rta va quyi bo‘g‘inning 1644 rahbari, kadrlar bilan ishlashga mas’ul 363 tuzilma rahbari, Xalq qabulxonalari tizimida ishlaydigan 464 rahbar, tuman va shahar hokimliklarida faoliyat yuritayotgan 1343 mutaxassis, hududiy hokimlik sektorlari bo‘yicha yaqinda tayinlangan 52 rahbar va vazirlik, idoralarning xalqaro reyting hamda indekslar bo‘yicha mas’ul 51 xodimi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan malaka oshirish kurslarini o‘tadi.

> **“ Maxsus tayyorlov dasturlari, jumladan, “Ayol rahbarlar maktabi”, “Hokimlar tayyorlov maktabi”, “Mahalla yettiligi” dasturlari ham amalga oshirilmoqda. Ular davlat xizmatchilarining professionalizmi va kompetensiyasini oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.**

Maxsus tayyorlov dasturlari, jumladan, “Ayol rahbarlar maktabi”, “Hokimlar tayyorlov maktabi”, “Mahalla yettiligi” dasturlari ham amalga oshirilmoqda. Ular davlat xizmatchilarining professionalizmi va kompetensiyasini oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Bundan tashqari, boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari faol joriy etilmoqda. Xususan, davlat fuqarolik xizmatchilari uchun masofaviy malaka oshirish kurslari ishlab chiqilib, amalga kiritildi. So‘nggi olti oy davomida ushbu kurslarni qariyb 7,5 ming davlat xizmatchisi muvaffaqiyatli tamomlab, o‘z kompetensiyalarini oshirdi va tegishli sertifikatlarga ega bo‘ldi.

### Mehnatni tashkil qilishning zamonaviy usullari tatbiq etiladi

Joriy yilga mo‘ljallangan davlat dasturiga Vazirlar Mahkamasining davlat organlarida masofaviy ishni tashkil etish va moslashuvchan ish tizimini takomillashtirishga oid qarori loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash taklifi kiritilgani muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Yurtimizda masofadan turib ishlash va moslashuvchan ish vaqti rejimlariga koronavirus pandemiyasidan so‘ng e’tibor qaratila boshlandi. 2022-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida moslashuvchan ish vaqti rejimi va masofadan turib ishlovchi xodimlarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari aks etdi.

Jahon amaliyotida masofaviy va moslashuvchan ish usullarining qo‘llanishi ancha oldin boshlangan.

Dunyo tajribasining ko‘rsatishicha, masofadan ishlash va moslashuvchan ish rejimlari, ayniqsa, farzand parvarishi bilan band ayollar, imkoniyati cheklangan insonlar, qariyalar va bemor shaxslarga qarovchilar uchun qulaydir.

Qator rivojlangan mamlakatlarda bu ish rejimlarini tartibga soluvchi hujjatlar (qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar, yo‘riqnomalar, tavsiyanomalar, reglamentlar) ishlab chiqilgan, masofadan turib ishlash va moslashuvchan ish vaqti mehnatni tashkil etishda asosiy ish usullari sifatida qo‘llanish ko‘lami kengayib bormoqda.

Shunga ko‘ra, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi shu yo‘nalishdagi muammolarni o‘rganish va ularning yechimiga qaratilgan takliflar ishlab chiqish borasida muayyan ishlarni amalga oshirmoqda.

Xususan, davlat organlarida mehnatni tashkil qilishning muqobil usuli sifatida masofadan turib ishlash va moslashuvchan ish vaqti rejimini joriy etishga munosabatni aniqlash maqsadida vazirlik va idoralarda faoliyat yuritayotgan 24 mingga yaqin davlat fuqarolik xizmatchisi o‘rtasida onlayn so‘rovnoma o‘tkazildi. Natijada ishtirokchilarning 44 foizi masofadan turib ishlashga hamda 42 foizi moslashuvchan ish rejimiga o‘tishga ijobiy munosabat bildirdi.

Shuningdek, 2024-yilda respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarida faoliyat yuritayotgan 87 nafar xotin-qiz, jumladan, o‘n to‘rt yoshgacha farzandlari bo‘lgan onalar, homilador ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, yoshga doir pensionerlar, nogironligi bo‘lgan shaxslarni yoki oilaning o‘zgalar parvarishiga muhtoj bemor a’zolarini parvarishlayotgan xodimlar uchun tajriba-sinov tariqasida moslashuvchan ish rejimi joriy etildi hamda bu jarayonni xolisona baholash uchun monitoring o‘tkazildi.

Tajriba-sinov davomida ish beruvchilar hamda xotin-qizlarning moslashuvchan ish rejimiga munosabatlarini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ishtirokchi xotin-qizlarning 59 foizi moslashuvchan ish vaqti rejimida ishlashni davom ettirish istagi borligini va 22 foizi ushbu rejimda ishlash qoidalarini belgilab beruvchi qonunosti hujjat mavjud bo‘lmagani uchun ish beruvchilar bunday ish rejimida ishlashga hali tayyor emasligini bildirdi.

So‘rovnomada ishtirok etgan xotin-qizlar moslashuvchan ish rejimida faoliyat yuritishi natijasida mehnat unumdorligi sezilarli darajada yaxshilanganini, vaqtdan samarali foydalanish va vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash ko‘nikmalari rivojlanganini, ish va shaxsiy hayotdagi munosabatlari yaxshi tomonga o‘zgarganini qayd etdi.

Ish beruvchilar va tarkibiy bo‘linma rahbarlari fikrlari o‘rganilganda, ular tomonidan moslashuvchan ish rejimi xotin-qizlarning ish faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmagani, aksariyat hollarda faoliyat samaradorligi oshgani ta’kidlangan.

Hozirga qadar agentlik tomonidan masofadan turib ishlash va moslashuvchan ish usulini joriy qilish borasida o‘tkazilgan o‘rganish va tahlillar davlat organlarida davlat fuqarolik xizmatchilarining masofadan turib va moslashuvchan ish vaqti usullarida ishlash qoidalarini belgilab beruvchi me’yoriy-huquqiy hujjatni qabul qilish zarurati borligini ko‘rsatdi.

Mazkur qaror loyihasida masofadan turib amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan funksiyalar ro‘yxati, davlat organlarida davlat xizmatchilarining masofadan turib ishlash qoidalari, davlat organlarida lavozimlarning ayrim toifalari uchun ishbay ishlash tartibi va davlat organlarida davlat xizmatchilarining moslashuvchan ish vaqti rejimida ishlash qoidalari nazarda tutilishi belgilangani masofaviy va moslashuvchan ish tizimini joriy etishda mavjud muammolarga huquqiy yechim bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, farmonda ilgari surilgan fikrlar qanchadan qancha dastur, reja, konsepsiya, yo‘l xaritalari, biznes g‘oyalar va innovatsion loyihalar uchun poydevor vazifasini o‘taydi.

Davlat xizmatida natijadorlik hamda raqamlashtirishga tayangan samaradorlik boshqaruvi joriy etiladi. Chunki bugungi islohotlardan maqsad bitta — xalqni rozi qilish.

Nuqtayi nazar

# TARAQQIYOT UCHUN INVESTITSIYA OQIMI MUHIM

## BU ESA O‘Z-O‘ZIDAN BO‘LADIGAN JARAYON EMAS

**Iqtisodiyot taraqqiyotida investitsiyaning o‘rni beqiyos. Shu bois, so‘nggi yillarda yurtimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo‘ldagi to‘siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish uchun katta qadamlar tashlanmoqda. O‘zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirish, har bir sarmoyador o‘zini erkin va ishonchli his qilishi uchun keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.**

Prezidentimiz huzurida ish boshlagan Xorijiy investorlar kengashi bugun investorlar masalalarini tezkor hal etish, ularning davlat rahbari bilan bevosita muloqotini yo‘lga qo‘yishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ko‘chmas mulk sotib olish, O‘zbekistonga kelib-ketish va yashash shartlari keskin soddalashtirilgani chet ellik investorlar uchun keng imkoniyat va qulaylik yaratdi.

Mamlakatimizdagi ochiqlik, kuchli investitsiya siyosati natijasida keyingi yillarda iqtisodiyotimiz barqaror o‘smoqda. Buni 2024-yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 6,5 foiz oshib, 115 milliard dollarga yetgani, xorijiy investitsiya 1,6 barobar o‘sib, qariyb 35 milliard dollarni tashkil qilgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

O‘tgan yili tog‘-kon, neft-gaz, kimyo, qishloq xo‘jaligi sohalarida investitsiya 2 karra oshgani, 50 ta tumanga 100 million dollardan ko‘p sarmoya kirib kelgani ham ushbu sohadagi faol islohotlar samarasidir. Bu ijobiy holat, albatta. Lekin xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish borasida yaratib berilgan sharoitlarni hisobga olsak, yanada yuqori natijalarga erishish mumkinligi oydinlashadi.

Prezidentimiz raisligida shu yil 16-yanvar kuni investitsiyalarni keng jalb etish va eksport hajmini oshirish borasidagi ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi asosiy vazifalar muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida

**Odinaxon OTAXONOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati**

sohadagi yutuqlar bilan birga ayrim muammolar ham atroflicha tahlil qilindi.

Eksport rivoji — barqaror iqtisodiyot garovi. Iqtisodiyotning tayanch ustuni va mamlakatning xalqaro bozorlardagi obro‘sini oshiruvchi yo‘nalish ham aynan eksport. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportchi korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish bo‘yicha muayyan ishlar qilinayotgani sababi ham shunda.

Videoselektor yig‘ilishida investitsiya va eksport bo‘yicha bu yilgi asosiy vazifalar belgilanib, ushbu masala hududlar bo‘yicha ko‘rib chiqildi. 27 ta tumanda investitsiya qiymati 200 million dollardan oshishi hisob-kitob qilingan. Lekin 10 ta tumanda reja 40 million dollarga ham yetmaydi. Mazkur tumanlarda yangi loyihalarni shakllantirib, investitsiya ko‘paytirilishi yangi ish o‘rinlari ochilishi va hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga turtki beradi.

Tadbirkorlik iqtisodiyot lokomotividir. Davlatimiz tomonidan erkin tadbirkorlik faoliyatini qaror toptirish, qulay shart-sharoit yaratish, ro‘yxatdan o‘tkazishdan tortib, soliq imtiyozi berish, kredit va yer ajratish hamda boshqa masalalardagi imkoniyatlar bugun o‘z natijasini berayotir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda tadbirkorlarning huquqiy kafolatlariga bag‘ishlangan muhim normalar belgilangani ularning huquqlari va manfaatlari bevosita ta’minlanishi uchun imkon yaratdi.

Sohadagi keng imkoniyatlar natijasida mamlakatda tadbirkorlar safi kengayib, xalqaro doiraga chiqmoqda. Ilg‘or korxonalar chet eldan to‘g‘ridan to‘g‘ri mablag‘ olib kela boshladi. Buni qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasida Tadbirkorlarga tashqi moliya bozorlariga chiqishga ko‘maklashish markazi tashkil qilindi.

Endi bundan samarali foydalanib, tadbirkorlar xorijdan ko‘proq mablag‘ jalb qilishi lozim. Bu yil xalqaro moliya institutlari hisobidan 5 milliard 200 million dollarlik ishlar bajarilishi rejalashtirilgan. Bu, o‘z navbatida, nafaqat biznesni rivojlantirish, balki yangi ish o‘rinlari ochish orqali aholi bandligini ta’minlash, ishlab chiqarish ko‘lami va eksport hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, erkin iqtisodiy zonalardagi korxonalar kiritgan sarmoyasiga qarab imtiyoz olyapti. Bu tannarxni pasaytirish, mahsulotni eksportga chiqarishga xizmat qilishi kerak. O‘tgan yili 22 ta erkin iqtisodiy zonadagi 589 ta korxona 42 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqargan. Lekin tovarlarning atigi 18 foizi tashqi bozorda sotilgan, 372 ta korxona umuman eksport qilmagan.

Yig‘ilishda ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilib, endi faqat eksportga ishlaydigan erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi ta’kidlandi. Ularda xorijiy brendlar bilan yuqori qiymatli, tashqi bozorlarda talabgir mahsulotlar ishlab chiqariladi. Shuningdek, bu yil eksportni 30 milliard dollardan oshirish mo‘ljallanmoqda. Masalan, yurtimizda xomashyosi bo‘lgan to‘qimachilik, elektrotexnika kabi tarmoqlarda eksportni 2-3 karra oshirish imkoniyati bor. Shu bois, mazkur ikki drayver tarmoqni rivojlantirish, eksportga ishlayotgan korxonalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘riladi. Xususan, eksportchilarni aylanma mablag‘ bilan ta’minlash uchun alohida faktoring tashkiloti ochilib, unga 100 million dollar ajratilishi ham juda to‘g‘ri va oqilona qaror bo‘ldi deb o‘ylayman. Korxonalarni xalqaro sertifikat talablariga moslashtirish xarajatining 20 ming dollargacha qismi qoplab beriladi. Rivojlanish va tadqiqot markazlari (R&D) uchun olib kelinadigan laboratoriya jihozlari bojxona bojidan ozod qilinadi.

Paxta yetishtirish va qayta ishlashda ham qo‘shimcha bozor mexanizmlari joriy etiladi. 2025-yildan boshlab, klasterlar paxtaga talabi va narx taklifini birjaga qo‘yadi, fermerlar esa o‘ziga ma’qulini tanlab, fyuchers shartnomasi tuzadi. Imtiyozli kredit olmay, o‘zi paxta yetishtirgan fermerlarga birjada sotgan paxtasining 10 foizi miqdorida subsidiya beriladi. Imtiyozli kreditni 31-dekabrgacha to‘liq qaytargan fermerlarga esa kreditning 4 foizi qaytarib beriladi. Bu juda muhim yangilik bo‘lib, ko‘plab fermerlarni faollikka chorlagani, harakatga keltirgani rost.

Mohiyatan qaraganda, yurt iqtisodiyoti taraqqiyoti bevosita investitsiya oqimiga bog‘liqligi yaqqol ayon bo‘ladi. Lekin investitsiya hech qachon o‘z-o‘zidan kirib kelmaydi. Buning uchun mamlakatda infratuzilmani rivojlantirish lozim. O‘zbekistonda bu borada ham huquqiy, ham amaliy jihatdan ko‘lamli ishlar qilinayotgani yurtimiz iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, investitsiya oqimini ko‘paytirishga zamin yaratadi. Har qanday soha yoki tarmoq unga kiritiladigan sarmoya tufayligina rivojlanadi. Yig‘ilishda belgilab berilgan ustuvor vazifalar esa mamlakatning yanada taraqqiy etishi, xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari ochish, pirovardida odamlarning turmush tarzini, hayotini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

# “YASHIL” BELBOG‘LAR

## ULARNI BUGUN YARATISHIMIZ KERAK, ERTAGA KECH BO‘LADI

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, bugun dunyoda sahrolarni yashillikka burkash loyihasi ustida ishlanmoqda. Tuproq cho‘llanishi, degradatsiyaga uchrashining oldini olish uchun cho‘llarga, sahrolarga daraxt ekilmoqda. Masalan, Xitoy o‘z hududidagi Taklamakon sahrosini yashillikka aylantirish borasida katta ishlarni boshladi. Uch ming kilometr uzunlikdagi maydonga 30 million tupdan ortiq daraxt ekildi va Sinszyan shahrining shimoli-sharqiy hududida yashil hudud barpo etilyapti. Bu joy Himolay tog‘iga yaqin bo‘lgani uchun sahroda qishda harorat 26 darajagacha sovib ketadi. Bundan tashqari, hududga Sibirdan ham qattiq sovuq kirib keladi. Yoz kunlari esa harorat 40 darajagacha isiydi.

Sahroning yuqorisida mamlakatning g‘arbiy qismini suv bilan ta’minlovchi 10 ta katta muzlik joylashgan. Agar yashil hudud barpo etilmasa, muzliklar erib, G‘arbiy Xitoy suvsiz qolishi mumkin. Shu muzliklar saqlab qolinishi uchun sahro yashillik bilan qoplanmoqda.

Daraxtlar yoki yashillik bor joyda salqin mikroiqlim yuzaga keladi, kislorod ko‘payadi. Zaharli moddalar kamayadi. Muzliklar erishining oldini olish va temir yo‘l o‘tgan infratuzilmani saqlab qolish uchun xitoyliklar bu yerda qamish va boshqa qurg‘oqchilikka chidamli daraxtlarni ekib parvarishlamoqda. Qamishning popuk ildizi katta hajmli bo‘lib, atrofidagi ko‘chadigan qum va tuzni ushlab qoladi.

Xitoy Taklamakon sahrosida faqat daraxt ekib, yashil hudud barpo qilish bilan cheklanmay, qum barxani ko‘chishi to‘xtagan joylarda quyosh panellari o‘rnatib, katta miqdorda elektr energiyasi ham olyapti. Temir yo‘lni qum barxanidan himoya qilish uchun yo‘l bo‘ylab 4-5 qator daraxtlar ekildi va ularni sug‘orish uchun yer tagidan suv olib, tomchilatib sug‘orish tizimi ishga tushirildi. Endi yashil polosalarga qamish, akatsiya, turong‘il daraxtlarini ekishga kirishildi.

Saudiya Arabistoni ham hududidagi katta sahroni yashillikka burkashga bel bog‘lagan. Mamlakat loyiha asosida 2030-yilgacha 400 million tup daraxt ekib, hududga Afrikaning shimoliy va g‘arbiy hududidan tez-tez ko‘chib keladigan qum barxani yo‘lini to‘sishni maqsad qilgan. Bu hududda 60 foiz aholi suv tanqisligidan aziyat chekadi. Shunga qaramay, 30 foiz maydonni tabiiy qo‘riqxonaga aylantirmoqchi. Kelgusida 50 milliard tup daraxt ekishni maqsad qilgan. Hozir 40 million gektar maydonni daraxt ekishga tayyorlash borasida reja asosida ishlar davom etmoqda. Keyinchalik 200 million gektar maydonni degradatsiyadan chiqarib, ekin ekishga yaroqli holga keltirish loyihasi tuzilgan.

Bundan tashqari, saudiyaliklar kam bo‘lsa ham yomg‘ir suvini to‘plashni yo‘lga qo‘ygan. Ular bu ish bilan qadimdan shug‘ullanib keladi. Buning uchun yarim oy shaklidagi katta maydonda chuqur qaziladi va yomg‘ir suvi ana shu chuqurga to‘planadi. Chuqurning tevaragiga daraxtlar ekiladi. Daraxtlar ildizi ana shu namlikda rivojlanadi. Shuningdek, saudiyaliklar yer ostidan suv olib, daraxtlarni tomchilatib sug‘ormoqda. Mamlakatda yillik yog‘in miqdori bor-yo‘g‘i 100 millimetr. Shunday bo‘lsa-da, ana shu ozgina yomg‘ir suvini to‘plab, foydalanadi.

Nigeriya va yana bir necha davlat birgalikda Afrika qit’asini ikkiga bo‘lib, “yashil devor” loyihasini ishga tushirmoqda. Loyiha ishtirokchilari faqat daraxtlar emas, qurg‘oqchilikka chidamli jo‘xori, kunjut, tariq kabi ekinlarni ham ekmoqda. Suv to‘planadigan chuqurlar atrofida yashil o‘simliklar, turli xil bir yillik va ko‘p yillik o‘tlar tabiiy ravishda o‘sa boshlaydi. Sekin-asta hayvonlar va qushlar uchun ozuqa manbai vujudga keladi. Xullas, bugun ko‘plab joylarda yomg‘ir suvini to‘playdigan qurilmalarni ishga tushirish ishlariga keng e’tibor berilmoqda hamda u yerlarda ekish uchun daraxtlar, butalar, ko‘p yillik va bir yillik ekin turlari tanlab olinmoqda.

Sahrolarda o‘rmonlar barpo etish evaziga atmosferada kislorod ko‘payadi. Iqlim o‘zgaradi, yumshaydi, dala-dashtning ko‘rinishi yaxshilanadi. Ekilgan daraxt va butalarning ildizi o‘z atrofida bo‘lgan qum, tuzni ko‘chishdan saqlaydi va mahkamlaydi. Daraxtlarning tanasi va ildizlari yerning ustki qismini mustahkamlaydi, eroziyaning oldini oladi. Daraxt va butalar yiriklashgandan so‘ng sahro shamoli sekinlashadi. 7-8-yillik bir tup saksovul atrofidagi 4 tonna qumni ushlab qolish xususiyatiga ega. Daraxtlarning soyasida har xil bir yillik o‘t-o‘lanlar o‘sadi. Bundan tashqari, saksovulning bir yillik novdalari to‘kilib, sekin-asta qum organik qoldiqlar yordamida tuproqqa aylana boshlaydi. Bir tup saksovul o‘zidan 0,8 tonna kislorod chiqaradi va atmosferadan 1,1 tonna karbonat angidridni o‘zlashtiradi. Demak, saksovul yoki boshqa daraxtlar ekish va ko‘kartirish havoni zararli gazdan tozalashga yordam beradi.

Mutaxassislar ta’kidicha, O‘zbekistonda yangi o‘rmonlar barpo etish dunyodagi boshqa hududlarga qaraganda 2-3-marta arzon tushadi. Bizda bir gektar yangi o‘rmon barpo etish uchun 150-200 dollar sarflansa, boshqa mamlakatlarda bu xarajat 500 dollarni tashkil qiladi.

Joriy yil mamlakatimizda Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deb nomlandi. Xo‘sh, bu yildan qanday umidimiz bor? Atrof-muhitni saqlash uchun nima qilishimiz kerak?

Shu o‘rinda bir o‘ylab ko‘raylik: bu borada biz nima ish qildik? Hech bo‘lmasa, bir tup ko‘chat ekdikmi yoki ekilgan bir tup ko‘chat parvarishini zimmamizga oldikmi? Ekinlarga quyiladigan suvni oz bo‘lsa-da, isrof qilmay sug‘orishning yangi usuliga o‘tdikmi? Chelakka suv olib, mashinalarni yuvishni odatga aylantirdikmi? Afsuski, bugun bu savollarga ijobiy javob bera olmaymiz.

Prezidentimizning 2024-yil 30-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligi maydonlaridagi qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, madaniy ekinlar ekilgan dala cheti hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko‘p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko‘chalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish tizimini yo‘lga qo‘yish belgilab berildi. Endi qayerda bo‘sh maydon bo‘lsa, albatta, shu joyga ko‘chat yoki boshqa ozuqa ekinlari ekish mumkin.

Mamlakatimizda 4 million gektar sug‘oriladigan maydon bor. Uning hududidan oqadigan ariqlar, zovurlar chetida — namligi yetarli joyda turli daraxt ko‘chatlarini ekish imkoniyati ham bor. Masalan, barcha viloyat ekin maydonlarining o‘qariqlari bo‘yida hech narsa ekilmay, bo‘sh yotibdi. Shu joylardan suv oqib o‘tadi, demak, ekilgan ko‘chatlar ko‘karib ketishiga 90-100 foiz kafolat bor. Ana shu bo‘sh joylarga turli daraxt ko‘chatlari ekilsa, albatta,

**Dilorom YORMATOVA, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor**

bir kun kelib, ularni yog‘och sifatida ishlatish mumkin. Bundan tashqari, bu daraxtlar atrof-muhit havosi tozalanishiga ham xizmat qiladi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Shuningdek, joylarga ekiladigan daraxt va buta turlarini ekologik nuqtayi nazardan o‘ylab rejalashtirish kerak. Chunki ayrim daraxtlarning hasharot va kasalliklari shu atrofda o‘sayotgan madaniy ekinlarga zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek, bir necha ming kilometrlab cho‘zilgan yo‘llar yoqasining birinchi va ikkinchi qatoriga manzarali, keyingi qatorlariga mevali daraxtlar ekilsa, juda foydali bo‘ladi. Sababi birinchi va ikkinchi qatordagi manzarali daraxtlar orqa tomonda qolgan mevali daraxtlarni ko‘chadan ko‘tarilayotgan chang va gazdan himoya qiladi. Oradan uch-to‘rt yil o‘tgach, pishib yetilgan mevalarni iste’mol qilish yoki qayta ishlash mumkin. Shu o‘rinda bir misol keltirib o‘tsam. O‘tgan asrning oltmishinchi yillari boshida Samarqand — Toshkent yo‘lining Samarqand viloyatiga kirish chegarasida o‘rik ko‘chatlari ekilgan. Bu daraxtlar hozir bahorda o‘tganingizda ham chiroyli gullab turadi. Demak, bu borada bizda tajriba yetarli.

Bizda asli kelib chiqishi O‘zbekiston bo‘lgan bir daraxt bor. Ko‘pchilik bu daraxtga ko‘p ham e’tibor beravermaydi. Bu — xandonpista. U biologik xususiyatiga ko‘ra juda chidamli. Olimlarning ma’lumotiga ko‘ra, 40 daraja sovuq va 55 daraja issiqqa chidaydi. Bugun pista kabi qurg‘oqchilik va sovuqqa chidamli daraxtni topib bo‘lmaydi. 1960-yillarda Toshkent — Samarqand yo‘lining Zomin va G‘allaorol hududidan o‘tgan qismi chetiga xandonpista ko‘chatlari ekilgan. Bu butalar oradan qariyb 60-70-yil o‘tgan bo‘lsa-da, hamon ko‘karib turibdi. Ular butun yoz bo‘yi deyarli bir marta ham sug‘orilmaydi. Qanchadan qancha qattiq sovuqqa bardosh berganini yoshi katta mutaxassislar va shu yaqin orada yashovchi aholi yaxshi biladi. Demak, xandonpista qurg‘oqchilikka va sovuqqa o‘ta chidamli. U 350-450-yilgacha umr ko‘radigan daraxtlar turiga kiradi.

Bugun mamlakatimiz hududida “yashil” belbog‘lar barpo etish payti keldi. Albatta, buning uchun sovuqqa va qurg‘oqchilikka, barcha noqulayliklarga chidamli, uzoq yashaydigan o‘simliklarni tanlash kerak.

Mamlakatimizda iqlimi va ekologiyasi eng og‘ir hududlardan biri — Navoiy viloyati. Viloyatda yirik kimyo va sanoat korxonalari mavjudligi tufayli shahar atmosferasida zararli gaz miqdori ruxsat etilgan me’yordan ko‘p. Yana hudud quruq iqlimi, havo namligi pastligi, chang bo‘roni tez-tez kuzatilishi va yozda harorat yuqori bo‘lishi bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda “yashil” hudud yaratish bilan ekologiyani, aholi turmush darajasini yaxshilash mumkin.

Shu yil bahorda Navoiy shahrini “yashil” belbog‘ bilan o‘rash loyihasiga kirishilsa, juda zo‘r ish bo‘lar edi. Buning uchun eni 12 metrli polosa olinadi va bu joyga to‘rt tupdan xandonpista ko‘chati ekiladi. Albatta, bu aniq chegara emas. Qatorlar soni ko‘proq bo‘lsa, yanada yaxshi. Shahar to‘liq “yashil” belbog‘ bilan o‘rab olinsa, bu holat ekologiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xullas, “yashil” belbog‘larni dastlab ekologik holati og‘ir bo‘lgan hududlardan boshlash zarur.

Viloyatdagi ikkinchi “yashil” belbog‘ bilan o‘raladigan hudud deb Zarafshon shahrini tanlash mumkin. Chunki shahar atrofini Qizilqumning katta konlari egallab yotibdi. Ammo bu konlarga bir necha yuz kilometrdan, ya’ni Amudaryodan katta quvurlarda suv tortib kelingan. Ushbu quvurlar usti tuproq bilan yopilgan bo‘lsa-da, atrofiga pista, o‘rik, qarag‘ay daraxtlarini ekish ijobiy natija beradi. Chunki suv o‘tgan joylar yopiq bo‘lishiga qaramay, zax yetarli darajada bo‘ladi.

“Yashil” belbog‘ni nafaqat Navoiy va Zarafshon shaharlarida, balki Qashqadaryo, Surxondaryo yoki Qoraqalpog‘istondagi katta sanoat korxonalari joylashgan barcha hududlarda barpo etish mumkin. Qoraqalpog‘istonda Orolning qurigan tubidan tashqari ham degradatsiyaga uchragan maydon ko‘p. Ana shu joylarda reja asosida ishlash zarur. Sanoat korxonasi atmosferaga karbonat angidrid gazi chiqaryaptimi, demak, bu korxona o‘zida xizmat qilayotgan insonlarning sog‘lig‘i, qolaversa, ularni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash uchun yashil polosalar tashkil qilishga kirishishi lozim.

Mamlakatimiz hududida “yashil” belbog‘lar tashkil qilsak, birinchidan, tabiatni, ekologiyani yaxshilaymiz. Ikkinchidan, oradan to‘rt-besh yil o‘tgach, tonnalab pista, o‘rik hosilini yig‘ib ola boshlaymiz. Axir bugun bozorlarimizda eng qimmat quruq mevalardan biri xandonpista. Oradan yillar o‘tib, biz katta miqdordagi pista va o‘rik, turshak eksportchisiga aylanishimiz mumkin.

Uchinchidan, “yashil” belbog‘ barpo etish natijasida eko yoki agroturizm rivojlanib, sayyohlar jalb qilinadi. Yangi ish o‘rinlari ochiladi va xalq xo‘jaligining ko‘plab tarmoqlari rivojlanadi. Xullas, “yashil” belbog‘larni bosqichma-bosqich shakllantirishga kirishish zarur. Albatta, buning uchun texnika vositalari, ko‘chatlar, mutaxassislar va ishchi kuchi kerak.

“Yashil” belbog‘lar natijasida sekin-asta yangi yer maydonlari paydo bo‘ladi. Shuningdek, shaharlarda havo harorati nisbatan yumshaydi. Bundan tashqari, salqinlash va ozuqa topish uchun qushlar, hayvonlar kela boshlaydi, yangi ekotizimga asos solinadi.

Biz bu ishlarni bugun bajarishimiz kerak. Ertaga kech bo‘lishi mumkin. Dunyoda bu borada katta ishlar boshlangan. Har bir mamlakat o‘z aholisi, sog‘lig‘i, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash borasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning turli yo‘llari va usullarini izlab topmoqda.

O‘tmishda Orol dengizini quritish bilan bog‘liq katta xatoga yo‘l qo‘yganmiz. Endi bu kabi xatolarni takrorlamaslik, kelajak avlodga yashil mamlakat qoldirish uchun bu ishlarni bajarishimiz shart.

# TINCH, XAVFSIZ VA BARQAROR MUHIT

## MUQOBIL ENERGIYA SAMARADORLIGIGA ASOSDIR

Dolzarb mavzu

**“Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish tashabbusi ertamizni o‘ylab tashlanayotgan qadamlar, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Shu ma’noda, 2025-yilning Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deb e’lon qilinishi uzoqni ko‘zlab, mamlakatimizning global ekologik muammolarga javob berishdagi qat’iyatini, pozitsiyasini aks ettiradi. Bugun iqlim o‘zgarishi, havo va suv ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho‘llanish, qazib olinadigan yoqilg‘idan nazoratsiz foydalanish kabi salbiy oqibatlar nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda sezilmoqda.**

**Ibrohimjon FOZILJONOV, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent**

“Bugungi kunda energetika manbalarini diversifikatsiya qilish, ularning balansida uglevodorod ulushini keskin kamaytirish iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish, barqaror rivojlanish va global xavfsizlikni ta’minlashning asosiy shartidir.

Yangi O‘zbekistonning strategik maqsadi ekologik barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy o‘sishning resurslar tejamkorligiga asoslangan “yashil” rivojlanish modeliga o‘tishdir. Shu bois, 2025-yilni O‘zbekistonda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qildik” dedi davlatimiz rahbari yaqinda bo‘lib o‘tgan “Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi” sammitidagi nutqida.

Mutaxassislar fikricha, iqlim o‘zgarishi natijasida 2050-yilga borib, Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslari 10-15 foiz kamayishi, yer degradatsiyasi tufayli qishloq xo‘jaligi hosildorligi 20-30 foiz pasayishi kutilmoqda. Uglerod chiqindilarining yillik hajmi 400 million tonnani tashkil etadi. Mavjud hayvon va o‘simlik turlarining 12 foizi yo‘qolish xavfi ostida. Suv va havo ifloslanishi sababli mintaqada har yili 50 mingdan ziyod inson turli surunkali kasalliklardan vafot etadi. Ushbu raqamlar Markaziy Osiyodagi ekologik muammolar jiddiyligini ko‘rsatadi va darhol qat’iy choralar ko‘rishni talab qiladi.

O‘zbekistonda ushbu tahdidlar ta’sirini kamaytirish bo‘yicha qator muhim qadamlar qo‘yildi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ekologik madaniyatni rivojlantirish, yashil hududlar yaratish va tabiiy resurslarni mustahkamlashga qaratilgan ishlar shular jumlasidan. Qo‘shni davlatlar bilan ishlab chiqilgan mintaqaviy iqlim strategiyasi esa barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik yuksak darajaga chiqqanini ifoda etadi. Bu borada Toshkent shahrida Iqlim o‘zgarishlarini o‘rganish bo‘yicha Markaziy Osiyo universiteti ochilishi ilm-fan rivojiga qo‘shilgan muhim hissa bo‘libgina qolmay, global ekologik muammolarni hal etishga qodir, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga ham xizmat qiladi. Boz ustiga, O‘zbekiston BMT tomonidan qabul qilingan ikkita muhim rezolyutsiyaning tashabbuskori bo‘ldi. Bu mamlakatimizning xalqaro maydondagi faol roli va tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha global sa’y-harakatlardagi nufuzi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Bugun yurtimizda kechayotgan islohotlarning borishi batafsil kuzatilsa, ayon bo‘ladiki, ko‘p yillar davomida mamlakatimiz rivojiga xalaqit berib kelgan muammolar aynan insonparvarlik yondashuvi tufayli muvaffaqiyatli yechim topmoqda. Qaysi sohani olmaylik, barcha joylarda yangilanishlarning asl mohiyati — inson qadr-qimmatini yuksaltirish namoyon bo‘lmoqda. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya sohasini olaylik.

Tahlillarga ko‘ra, yurtimizda quyosh va shamol energiyasi salohiyati elektrga bo‘lgan hozirgi ehtiyojni 10-12 barobar ortig‘i bilan qoplashga yetadi. Lekin shunday ulkan imkoniyat ancha yillar davomida ishga solinmagan edi. So‘nggi yillarda bu sohaga katta e’tibor qaratilib, huquqiy zamin yaratildi. “Yashil” energiya manbalarini barpo qilish bo‘yicha katta dasturlar boshlandi. Investorlar uchun jozibador muhit shakllantirildi.

Davlatimiz rahbari o‘tgan yilning 13-dekabrida energetika sohasida yangi quvvatlarni ishga tushirish va navbatdagi loyihalar qurilishiga start berish marosimidagi nutqida 2030-yilga borib, O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami iste’moldagi ulushi 54 foizga yetkazilishini ma’lum qildi. Vaholanki, Prezident farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida 2030-yilgacha mamlakatdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 25 ming megavatt hamda ularning jami iste’moldagi ulushini 40 foizga yetkazish belgilangandi. Ko‘rilgan sa’y-harakatlar, chora-tadbirlar tufayli 2030-yilga qadar yana 19 ming megavatt “yashil quvvat” barpo etilib, qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilmoqda. Birgina 2025-yilda 3,4 ming megavattli 18 ta quyosh va shamol stansiyasi hamda 1,8 ming megavattli saqlash tizimlari ishga tushiriladi. Kelgusi ikki yilda xususiy tadbirkorlar bilan birga 2 mingdan ortiq kichik va mikro GES qurish bo‘yicha katta dastur amalga oshiriladi.

Bundan keyin ham sohaga xususiy sektor kirib kelishini rag‘batlantirib, elektr energiyasi bozorini tashkil etish bo‘yicha katta qadamlar qo‘yiladi. Xususan, raqobatli savdolar orqali elektr energiyasi ulgurji bozori yaratiladi. Bular aytishga oson, ammo bajarish murakkab vazifalar. Islohotlar tufayli sarmoyadorlarning yurtimizga qaytishi mana shunday ulkan loyihalarni amalga oshirish imkonini beryapti. Sayyoramizda tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, xalqaro savdo pasayishi, investitsiya oqimlari kamayishi, iqlim ofatlari kuchayishi kabi muammolar sharoitida yurtimizdagi bunyodkorliklar investorlarning tinch, xavfsiz, barqaror Markaziy Osiyo mintaqasiga e’tiborini qaratishga undayotgani bor gap. Zero, Yevropa va Yaqin Sharqdagi ziddiyatlar fonida jahon iqtisodiyotining o‘sish sur’atlari so‘nggi uch yil davomida pasayib ketdi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq tendensiyalar ham kutilgan umidlarni oqlamayapti. 2023-yilda rivojlanayotgan davlatlarga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 9 foiz kamaydi. Shunday sharoitda 80 millionga yaqin nufusga ega bo‘lgan yangi bozor investorlarga ishonch bag‘ishlashi mumkin. Boz ustiga, O‘zbekistonda xalqaro sarmoyadorlar bemalol, erkin faoliyat ko‘rsatishi uchun yildan yilga munosib sharoitlar yaratilayotganiga, imtiyoz va kafolatlar taqdim etilayotganiga barchamiz guvoh bo‘lib turibmiz.

Eng avvalo, sarmoyador pul tikishidan oldin chamalab ko‘radi: “Mablag‘ kiritsam, foyda olamanmi?” Demak, unga bashorat qilsa bo‘ladigan muhit kerak, chunki bu xususiy sektor va xorijiy investorlarning hayotini yengillashtiradi.

Ikkinchidan, tashqi dunyoga ochiqlik tashqaridan bilim va texnologiyalarni olish uslubidir, bu xoh savdo, xoh to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar orqali, xoh odamlar harakati natijasida bo‘lsin. Bu sharoit ham yurtimizda bor.

Uchinchi yo‘nalish esa xususiylashtirish jarayonining boshlanishi. Bu shartlarning bari O‘zbekistonda mujassam. Xususan, 2017-yildan buyon O‘zbekiston uchun muhim muvaffaqiyat omillaridan biri ochiqlik bo‘ldi. Ko‘plab kompaniyalar o‘z faoliyatini o‘sha kezlardan boshladi, erkin savdo qilish, valyuta ayirboshlash imkoniyatlari paydo bo‘ldi va kompaniyalar bashorat qilinadigan muhitda ishlay boshladi. Bunga yurtimizda “yashil” energiya manbalari yaratish maqsadida yo‘lga qo‘yilayotgan ulkan loyihalar yaqqol misoldir.

O‘zbekiston yangilanish va taraqqiyotda iqtisodiy islohotlar drayveriga aylandi. Eng asosiysi, davlat va jamiyatning barcha sa’y-harakatlari mamlakatda millatlararo birdamlik muhitini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Bu ish esa yangi O‘zbekistonning asosiy g‘oyasi bo‘lgan “Inson qadri uchun” formulasi, shuningdek, islohotlarning “Inson — jamiyat — davlat” degan bosh tamoyili hayotga tatbiq etilayotganini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

## Prezident tashabbusi amalda

# SAYXUNOBOD TOMORQACHILIK ORTIDAN RIVOJLANAYOTGAN

**Xayolimda Sirdaryo bir qadamlik yo‘l. Nari borsa ikki soatda yetib olsak kerak degan o‘y o‘tdi fotomuxbir hamkasbimni kutish asnosida. Shu bois, kun ancha yorishganda yo‘lga chiqdik. Shaharda esa har doimgi tirbandlik. Soat millari mo‘ljalimizdagi vaqtni ko‘rsatganida biz hali manzilning yarmiga yetgandik. Ammo yo‘l olis tuyulmadi, chunki bilganimiz yana boyagi gap — Sirdaryo Toshkentdan bir qadamlik joy, poytaxtga eng yaqin viloyatlardan biri.**

Nihoyat Sirdaryo degan katta yozuv ko‘rindi. Viloyatga kirib bordik. Biz yo‘l olgan manzil — Sayxunobod tumanigacha bir necha kilometrlik masofa qoldi. Ketaverishda yurtimizdagi eng katta daryolardan biri — Sirdaryodan o‘tdik. “Sirdaryoning suvi ancha to‘libdi, avval qurib, kamayib ketgandi”, dedi sherigim quvonib. Gapining orasida bu yil hududda dehqonchilik yaxshi bo‘lishi va boshqa mulohazalarini ham qo‘shib qo‘ydi. Har holda daryolarda suvning to‘lib oqqani yaxshi, yerlarning unumdorligi ortadi, hosil mo‘l bo‘ladi.

Azim daryo viloyatning Sayxunobod tumaniga yaqin ekanida ham ma’no bordek. Axir hudud ahli keyingi bir yilda yer bilan tillashishning hadisini olib, dehqonchilikni tadbirkorlik darajasigacha olib chiqyapti. Tomorqadan unumli foydalanish, bozorbop mahsulotlar yetishtirishda ilg‘orlab, agrotadbirkorlar paydo bo‘lyapti. Odamlar katta yo kichik tomorqasidan yiliga 3-4 marta hosil olib, doimiy daromad manbaini yaratmoqda.

Gap davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan o‘tgan yilning mart oyida yo‘lga qo‘yilgan Sayxunobod tajribasi haqida boryapti. Uning ahamiyati qisqa vaqtda yurtdoshlarimiz tiliga tushdi. Shu bilan birga, mazkur tuman aholisining ijtimoiy turmush tarzi bugun ko‘pchilikka qiziq. Biz ham Sayxunobod tajribasi qanday joriy qilinayotgani va o‘ta og‘ir ahvoldagi hudud qanday qilib qisqa vaqtda yangi tajribani ommalashtira olgani bilan qiziqdik.

Manzilimiz va maqsadimiz Sayxunobod tuman hokimligida birlashdi. Bizni kutib olib, kun davomida hamrohlik qilgan O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Sayxunobod tuman bo‘limi boshlig‘i Tohir aka Javlonov ishni ushbu tajribaning yo‘lga qo‘yilishi haqida gapirib berishdan boshladi.

— Kechagidek esimda, 2024-yilning 14-mart kuni davlatimiz rahbari viloyatimizning Sayxunobod tumaniga tashrif buyurib, tomorqa va uy xo‘jaliklaridagi imkoniyatlarni to‘liq ishga solish orqali aholi daromadlarini oshirish yuzasidan o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida ilk bor Sayxunobod tajribasi haqida gapirdi, — deydi Tohir Javlonov. — Gap shundaki, tumandagi iqtisodiy ahvol ancha og‘ir edi. Aholining yaxshi yashashi, daromadli bo‘lishi uchun imkoniyatlar yetarli emasdi. Bandlik, kambag‘allikdan chiqarishga katta-katta mablag‘lar ajratilgan, lekin ularning hammasi ham to‘g‘ri yo‘naltirilmagani yig‘ilishda tanqid qilindi. Yil sayin ahvol og‘irlashib borgan, iqtisodiy jihatdan zarardagi hudud edik. Masalan, mahalliy byudjet tushumi 27 milliard so‘m bo‘lsa, xarajati 67 milliard so‘mdan oshgan. Ya’ni tuman, asosan, davlat ko‘magi hisobiga “kun ko‘rgan”, rivojlanishdan ancha orqada edi. “Bir so‘z bilan aytganda, Sayxunobodda tadbirkorlik o‘smayapti, yangi O‘zbekiston nafasi sezilmayapti”, deya ta’kidladi yig‘ilishda davlatimiz rahbari.

Boshqa tomondan, odamlarimizning asosiy tirikchiligi chorvachilikdan bo‘lib, oilaning ehtiyojini ta’minlashgagina xizmat qilgan. Aholining aksariyati doimiy daromad manbayiga ega emasdi. Tomorqa yerlari ham shunday, odamlar o‘z xonadonidagi katta-katta yer maydonlaridan daromad olish, hatto o‘z ehtiyojlari uchun foydalanishni yo‘lga qo‘ymagandi. Shu bois, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan aholini daromadli qilish bo‘yicha Sayxunobod tajribasi yo‘lga qo‘yildi. Bunda har bir xonadondagi tomorqa va uy xo‘jaliklarini ishga solish, ulardan unumli foydalanib, yiliga 3-4 marta hosil yetishtirish, hududda kichik sanoat va xizmatlarni yo‘lga qo‘yish vazifasi belgilab berildi. Qolaversa, har bir mahallaning drayver yo‘nalishidan kelib chiqib, baliqchilik, asalarichilik, hunarmandlik va boshqa tarmoqlarni rivojlantirish kerak edi. Asosiy maqsad esa tuman ahlini mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda daromad topishga o‘rgatish hamda hududning o‘z sarmoyasini oshirishga qaratilgan.

## BOSHLANISH NUQTASI

**Ko‘pchilik davlatimiz rahbarining Sayxunobod tumaniga tashrifini Ittifoq mahallasidagi 70 yoshli Risolat opa G‘ulomovaning xonadoniga kirgani bilan yodga oladi. Salkam 52 yildan buyon tumandagi 21-oilaviy poliklinikada tibbiyot xodimi bo‘lib ishlab kelgan ayol 14 sotixli tomorqasiga mehr berib, turli mahsulotlar yetishtiradi. Hovlisida chorva mollari, parranda boqadi, ikki sotixli issiqxonasi ham bor. Nabiralarini mehnatga o‘rgatgan, doim yonida yordamchi.**

**Komiljon MULLAJONOV,**
**Sayxunobod tumani hokimi**

Tashrif davomida Prezidentimiz opa bilan suhbatlashgan, tomorqani ko‘zdan kechirgan edi. Hatto eng namunaviy xonadon deya e’tirof etgan. Bu uchrashuvni Risolat opa hayotidagi eng unutilmas kun sifatida eslab yuradi. Hamqishloqlari ham haligacha o‘sha voqeani eslab, oilaga havas qiladi. Shuning ortidan tomorqasini epaqaga keltirib, mahsulot yetishtirishga tushib ketgan oilalar ham oz emas.

Odamlarning bu havasiga Sayxunobod tajribasi doirasida boshlab yuborilgan ishlar, birin-ketin joriy qilingan imtiyozlarga bo‘lgan qiziqish ham qo‘shildi. Mubolag‘a bo‘lsa ham aytamiz, tashrifning ertasigayoq barcha mutasaddilar — hokim yordamchisidan tortib, banklar xodimlarigacha xonadonma-xonadon yurib, odamlarga tomorqadan foydalanish bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatibgina qolmasdan, amaliy ishlarga kirishib ketdik. Qisqa vaqtda katta-kichik loyihalar shakllantirilib, banklar tomonidan naqd pulda imtiyozli kreditlar ajratish boshlab yuborildi. Bir necha soat ichida kredit pulini qo‘liga olganlar ko‘plab topiladi.

Shunday qilib, vazifa aniq qo‘yildi — Sayxunobod tumanidagi 19 ta mahallada istiqomat qiladigan 83 mingdan ziyod aholining turmush sharoitini yaxshilash, hududning iqtisodiy rivojlanishini o‘stirish kerak. Talab ham, so‘rovi ham qattiq bo‘lishi tushunildi. Oradan bir necha oy o‘tib, 2024-yilning may oyida Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan yig‘ilishda Sayxunobod tajribasi tahlil qilinib, aprel oyining o‘zida mahallalarda 70 mingta loyiha amalga oshirilib, 465 ming gektar tomorqaga ekin ekilgani, 365 ming aholi bandligi ta’minlanganiga qaramay, ishlar hamma hududlarda ham birdek tashkil etilmayotgani tanqid qilindi. Joylarda Sayxunobod tajribasini jadallashtirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Ko‘pchilikni o‘zi Sayxunobod tajribasining mohiyati, boshqa tajribalardan farqi nimada, nahotki oddiygina tomorqadan foydalanishni tadbirkorlik darajasigacha olib chiqish mumkin, odamlarda bu boradagi “immunitet” qanday shakllantirilyapti, degan savol qiziqtiradi. Bu tajriba bir qarashda faqat tomorqa va issiqxonachilikni rivojlantirishdangina iboratdek. Ammo, aslida, yo‘nalishlar juda keng.

Sayxunobod tajribasining asosiy mohiyati hududning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda aholi daromadlarini oshirish, bandligini ta’minlashga qaratilgan. Bunda ko‘proq e’tibor tomorqa va uy xo‘jaliklariga qaratilgani boisi, Sayxunoboddagi aholi xonadonlarining aksariyati katta-katta tomorqa maydonlariga ega. Va, afsuski, ulardan unumli foydalanilmagan. Aniqrog‘i, tumanda mavjud 3400 gektar aholi tomorqalarining 30 foiziga ham ekin ekilmas yoki faqatgina chorva mollari uchun ozuqaga beda va makkajo‘xori ekilardi. Odamlarda boshqa hududlardagi kabi mustaqil dehqonchilik amaliyoti, ko‘nikmasi rivojlanmagan. Gap shundaki, Sirdaryoning qadimgi o‘zanlari ta’sirida ko‘p joylarda yer zaxligi yuqori, yer osti suvlari sathi esa yaqinligi sabab ko‘pchilik beda ekishga odatlangan, faqat chorva bilan shug‘ullangan. Yillar o‘tib, ba’zi oilalar uchun bu yagona daromad manbai bo‘lib qolgan. Vaholanki, bundan deyarli daromad olishning imkoni yo‘q. Masalan, 1 sotix joydan 5 marta beda o‘rib olgan taqdirda ham, taxminan 50 bog‘ olib, uni 20 mingdan sotsa, 1 sotixdan bir yilda 1 million so‘m daromad qilish mumkin. Agar shu maydonda sabzavot yoki boshqa bozorbop mahsulot yetishtirilsa, bir necha barobar ko‘proq daromad topish mumkinligi amaliyotda o‘z isbotini topib kelyapti. Ana shu narsani odamlarga o‘rgatish, ularda tomorqadan samarali foydalanib, yiliga 3-4-marta hosil olish “immunitetini” shakllantirish kerak edi. Shuning uchun asosiy urg‘u tomorqa va uy xo‘jaliklariga berildi. Sayxunobod tajribasi joriy etilib, mahallalarga qiymati 5 milliard so‘m bo‘lgan 19 ta mini traktor va 150 dan ortiq motokultivator tarqatildi.

Buning natijasida aholi tomorqalaridan uch martagacha hosil olish tizimi joriy etilib, 1400 gektari yoki 41 foizida uch marta hamda 1800 gektari yoki 53 foizida ikki martagacha hosil olishga erishilmoqda.

Sayxunobod cho‘l zonasi bo‘lgani sababli asosiy logistika yo‘llaridan chetda qolgan. Tabiiyki, boshqa cho‘l zonalaridagi aholi kabi bu yerdagilar ham ko‘proq chorvachilik bilan shug‘ullanishi faqatgina “tirikchilik” bo‘lib, uning ortidan har bir oila o‘z ehtiyojlariga arang yetadigan ozuqa topgan va minimal darajada daromad ko‘rgan. Shu bois, iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha sharoiti o‘rtachadan past, lekin ichki imkoniyatlari katta bo‘lgan hudud sifatida tanlab olinib, davlatimiz rahbari tomonidan tajriba tashabbusi taklif qilindi. Bu tashabbusning mohiyati bir necha yo‘nalishlardan iborat. Xususan, tomorqa va yordamchi xo‘jaliklardagi yer resurslariga tadbirkorlikning eng birinchi tayanchi va daromad manbayi sifatida qaralishi, hududdagi chorvachilikni endilikda dehqonchilik, bog‘dorchilik, asalarichilik, baliqchilik va boshqa tarmoqlar imkoniyatlarini rivojlantirish bilan to‘ldirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, turli sabablarga ko‘ra imkoniyati cheklangan oilalarda minimal daromad manbaini yaratish kabilar shular jumlasidan.

Shuningdek, mahallalarning drayver yo‘nalishlari tanlab olinib, tarmoqlarga ixtisoslashtirish ham harakatlarimizning bir qismi. Tumanda oldindan chorvachilikka ixtisoslashgan bir necha mahalla bor. Boshqa mahallalarda esa baliqchilik, gulchilik, hunarmandlik ommalashyapti. Qaysi yo‘nalish bo‘lmasin, loyihalarni shakllantirishda bevosita ishtirok etib, natija bo‘lgunga qadar aholiga ko‘maklashyapmiz. Hokim yordamchilari “1 sotix tomorqadan kamida 1-2 million so‘m daromad” mezoni asosida biznes-reja ishlab chiqadi. Istiqbolli loyihalarga banklar tomonidan tez muddatda imtiyozli kredit ajratiladi. Tumandagi

19 ta mahallaning har biriga biriktirilgan agronomlar tomorqa yoki issiqxonaga ekin ekishdan to mahsulotni sotishgacha bo‘lgan jarayonda ishtirok etadi. Agronomlar uchun oylik maosh ham to‘lanadi. Qolaversa, tumanda eksportga ko‘maklashuvchi korxona ochilib, xonadonlarga serhosil qovoq, mosh, loviya, rozmarin, brokkoli, timyan urug‘ini yetkazib beryapti, yetishtirilgan mahsulotni sotib olib, eksport qiladi. Xonadonlar kooperatsiya asosida eksportchi bilan bog‘lab beriladi. Tumanda 2 ming tonnalik sig‘imga ega saqlash, saralash va qayta ishlash kompleksi tashkil etish ko‘zda tutilgan. Umuman, Sayxunobod tajribasi yerdan yanada samarali foydalanish, dehqonlar uchun bozor topishga ko‘maklashish, tadbirkorlarni sifatli urug‘ va dori vositalari bilan ta’minlash, eksportiga amaliy yordam berish, yer munosabatlarini shakllantirish kabi muhim islohotlarni o‘z ichiga oladi.

## YILDA 3-4 MARTA HOSIL

**Bu boradagi ishlar go‘yo Ittifoq mahallasidan boshlangan edi. Har holda ushbu tajriba haqida gap ketsa, darrov shu mahalla tilga olinadi. Mahallamizdagi 1165 ta xonadonda 7 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. Oilalarning aksari oldindan xonadonida dehqonchilik qilib, chorva mollari boqqan. Ammo buning samaradorligi nihoyatda past ekani aytiladi. Boisi, tomorqaga, asosan, mollar uchun yemish bo‘ladigan beda yoki makkajo‘xori ekilgan. Hatto kundalik uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olib iste’mol qilishgan.**

Qish bo‘lishiga qaramasdan, issiqxonamiz ichi mahsulotlar bilan to‘la. Bir tomonda limon pishib turibdi, boshqasida turli ko‘katlar, rediska o‘smoqda. Tashqarida havo ancha salqin, ammo issiqxona ichi issiqdan hatto bug‘langan. Biroq bu tabiiy issiqlik, issiqxonaga uch qavat plyonka yopilib, termos qilingan. Isitish tizimi mavjud bo‘lmagan sharoitda shu usuldan foydalanib, qishda ham mahsulot yetishtiryapmiz, yiliga 3-4 marta hosil olish tajribasi shakllandi. Mehnat qilsa, issiqxonadan ham yaxshi daromad topsa bo‘ladi. Hamma gap qilayotgan ishingni tushunish va mehnatda. Masalan, bizning issiqxonadagi mahsulotlarni yetishtirishda deyarli katta xarajat yo‘q. Ammo to‘g‘ri parvarishlab, ko‘p hosil olish orqali maqsadga erishish mumkin. Muhimi, tomorqa bo‘sh yotmaydi, qishin-yozin mahsulot yetishtiramiz. To‘g‘ri, issiqxonada pomidor, bulg‘or qalampiri kabi sabzavotlar yetishtirilsa, ko‘proq daromad olish mumkin. Buning uchun isitish tizimi zarur. Bir necha yillar oldin issiqxonada gaz batareyalari bo‘lgan, ammo isitish imkoni bo‘lmagani sababli olib tashlaganmiz. Lekin tabiiy usulda isitish ham ancha samarali, xarajati kam bo‘ladi. Farzandlarim davlat ishida ishlaydi, biroq ularning ham xonadonida issiqxona bor. Dehqonchilikni o‘rganib katta bo‘lgan, tomorqani bo‘sh qo‘ymay, qo‘shimcha daromad olishga intiladi.

**Mamadali TILLAYEV,**
**“Ittifoq” MFY fuqarosi**

## TOSHKENTGA KETISHNI O‘YLAMAYAPMIZ

**“Yer — xazina”, deb bejiz aytilmagan. Unga mehr berilsa, og‘ir mehnat emas, balki qo‘shimcha daromad manbayi sifatida qaralsa, hatto kichik tomorqa ortidan ham tadbirkorga aylanish mumkin. Bu gaplarimning mubolag‘asi yo‘q. Chunki bunga o‘z hayotim misolida guvoh bo‘ldim.**

O‘rta ma’lumotliman. Oilali, 2 nafar farzandim bor. Ishsizligim sabab “Ayollar daftari”da turardim. Hokimiyatga tinimsiz qatnab, oilaviy ahvolim og‘irligidan nolib, mutasaddilardan tuzukroq ish so‘rardim. Taklif qilingan ishlarning bari 1 million so‘m oylik maoshli edi. Bu olti kishi istiqomat qiladigan xonadon uchun juda oz. Shu sabab taklif etilgan ishlarni rad etardim. Bu yoqda esa oilaviy sharoitim kundan kunga og‘irlashib borardi. Ro‘zg‘orni tebratish uchun birovlarning uyida ishlab, tirikchilik qildim. Ammo bu ham doimiy bo‘lmadi, oilada esa kam-ko‘stning tagi ko‘rinmasdi. Oxiri er-xotin kelishib, Toshkentga yo‘l oldik. Bir oilaga ishchi bo‘lib joylashdik. O‘sha yerda yashab, ishladik. Uyga bir oyda bir kelib ketardik, farzandlarimga esa qaynonam qarab turardi. Biz ishlagan xonadon gulchilar oilasi edi. Men gul parvarishiga qaradim, erim esa xonadon egasi bilan bozorga chiqardi. Shu taqlid oradan to‘rt yil o‘tdi. Bu orada er-xotin ham gulchilikni ancha o‘rganib oldik. Shu ishni o‘zimiz boshlashga qaror qilib, mart oyida Sayxunobodga qaytdik. Jamg‘argan pullarimizga oq romashka gulini olib, tomorqamizning 10 sotix qismiga ekdik. Mablag‘imiz ozroq bo‘lgani uchun issiqxona qilmasdan, ochiq maydonda ish boshladik.

Davlatimiz rahbarining tumanimizga tashrifidan so‘ng xonadonimizga bir guruh mutasaddilar kelib, ishimizni kengaytirishimiz uchun imtiyozli kredit taklif qildi. Undan avval aholiga ko‘plab imkoniyat, imtiyozlar berilayotganini eshitib quvongandik. Taklif ma’qul kelib, 33 million so‘m naqd pulda kredit olib, 7 sotix issiqxona qurdik. Shu pulga xrizantema guli ko‘chatlarini ham olib ekdim. Olti oy ichida 47 million so‘m daromad qildim. Avvalroq ekkan oq romashkam esa 27 million so‘m daromad keltirdi. Biror ishni tushunib, to‘g‘ri ishlay olsangiz, yaxshi pul topish mumkin ekan. Bir yil oldin ham oddiy yollanma ishchi edim. Bugun esa o‘z gulchilik biznesim bor. Shu kichkina issiqxona bilan Guliston, Baxt shaharlarini gul bilan ta’minlayapman. Hatto Toshkentdan kelib, gul olib ketadigan xaridorlarim bor. Mahalladagi do‘konlarga buket gullar tayyorlab beraman. Asosiysi, ishimdan ham zavq, ham daromad topyapman. Oilam bag‘rida, farzandlarim yonidaman. Turmush o‘rtog‘imga ham kredit asosida motokultivator berilgan edi. Qo‘shnilarning yerini haydaydi, kunlik daromadi bor. Kreditlarimizning bahor oyigacha bo‘lgan to‘lovlarini qilib qo‘yganmiz. Oiladagi sharoitimizni ancha yaxshilab oldik. Allohga shukr, kamimiz yo‘q. Endi Toshkentga ketish haqida umuman o‘ylamayapmiz.

**Dilfuza TOJIBOYEVA,**
**“Gulbuloq” MFY fuqarosi**

**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

# TAJRIBASI: HUDUD NAMUNAGA AYLANDI

## XONADON EGALARI — TADBIRKOR

**Sayxunobod tajribasi doirasidagi ishlar tomorqadan foydalanish samaradorligini oshirishni odamlarga tushuntirishdan boshlangani bejiz emas. Chunki mahsulot yetishtirishning ham yo‘l-yo‘rig‘i bor, yaxshi daromad olish uchun dehqonchilik ko‘nikmasini egallash bilan birga bozor talabiga moslashish kerak. Mahallalarga biriktirilgan agronomlar har bir oilaning qiziqish, imkoniyatlaridan kelib chiqib, daromad keltiradigan mahsulotlar yetishtirishni tavsiya qiladi. Tomorqa va issiqxonalarga sabzavotlardan pomidor, bulg‘or qalampiri, ko‘katlar ekila boshlandi. Ochiq maydonlarda piyoz yetishtirilyapti. Hatto issiqxonada sabzi, tomorqalarda eksportbop oshqovoq yetishtirish boshlandi.**

Qizig‘i, hududda oshqovoq juda yaxshi hosil berar ekan. Cho‘l zona bo‘lishiga qaramay, Sayxunobodning yeri oshqovoqqa rosa mos keldi. Tumanning 19 ta mahallasidagi kam ta’minlangan oilalarga tegishli bo‘lgan jami 300 gektar tomorqa yer maydoniga “amerika gantel” navli eksportbop oshqovoq ekildi. Mahsulot kutilganidan erta yetilib, mavsumda 3 ming tonnadan ortiq hosil olindi. Eksportchi korxonalarning o‘zi aholidan mahsulotni sotib oldi. Oshqovoqning bir qismi mahalliy bozorga chiqarilgan bo‘lsa, bir qismi eksport qilingan. Yana katta miqdordagi mahsulot omborxonada saqlanmoqda. Xorijda bu mahsulotga talab katta. Faqat asosiy masala bozor topishda. Kelasi gal mahsulot tayyor bo‘lgunga qadar bozorlarni aniqlashtirib olishimiz kerak ekan degan xulosaga keldik. Chunki oshqovoqni uzoq saqlash qiyin, darrov xaridor topish yoki qayta ishlash kerak. Aks holda, dehqon ham, eksportchi ham zarar ko‘radi. Shuning uchun avval bozorni aniq qilib olish kerak, yo‘qsa, odamlarni daromad olishga ishontirib bo‘lmaydi.

Oshqovoq nafaqat ichki, balki xalqaro bozorda ham xaridorgir mahsulot. Sayxunobod sharoitida 1 gektardan 10 tonna hosil olish mumkin. Bunga aholi, xususan, o‘zim ham guvoh bo‘ldim. Ishonsangiz, tomorqamga atigi 7 dona qovoq urug‘ini ekkandim. Shundan 140 dona oshqovoq oldim. Ortiqcha xarajati ham, mehnati ham yo‘q. Mahalliy aholiga oshqovoq yetishtirish juda ma’qul keldi. Bir fuqaro 10 sotix yerga ekib, 10 million so‘m daromad topdi. Shu bois, hududda oshqovoq yetishtirish ham ommalashib boryapti.

Sayxunobod tajribasining o‘ziga xosligi ham shunda — har bir ish aniq bilim, tavsiya va imkoniyatlarga asoslanadi. Kreditlar ham faqat maqsadli loyihalarga ajratilyapti. Biror loyiha taklif etildimi, darhol o‘rganishga kirishamiz, istiqbolli bo‘lsa, qo‘llab-quvvatlaymiz. Chunki maqsadsiz olingan kreditlardan, avvalo, odamlarning o‘zi zarar ko‘radi. Ishi yurishmasa, kreditni ham to‘lolmay, qarzga botadi.

2024-yil mart oyiga qadar ushbu tumandagi aholi xonadonlarida 100 ga yaqin issiqxona bo‘lgan. Sayxunobod tajribasi yo‘lga qo‘yilib, tomorqadan samarali foydalanish yo‘nalishlari belgilangach, ko‘pchilik issiqxonada mahsulot yetishtirishga qiziqish bildirdi. Chunki bunda hosildorlik yuqoriroq bo‘ladi, bir mavsum emas, balki yilda 3-4-marta mahsulot yetishtirish mumkin. Birin-ketin issiqxona qurish uchun odamlarga naqd pul shaklida imtiyozli kreditlar ajratilishi boshlandi. Hozirgi kunga kelib, tumanda issiqxonalar soni 800 tadan oshdi.

Muhimi, kredit olgan fuqarolar o‘z holiga tashlab qo‘yilmaydi. Har biri bilan mahallaga biriktirilgan agronom ish olib boradi. Issiqxona quruvchi ta’minotchini topishdan tortib, bozorbop mahsulot tanlash, yetishtirish, sotishgacha ko‘maklashadi. Qolaversa, fuqarolar yig‘inlari tomonidan har bir xonadondagi tomorqada yetishtirilgan mahsulotlar miqdori, ularning sotilishi, aholining daromadlari qat’iy nazoratga olingan. Harakat besamar ketmasligi, olingan mablag‘ o‘zini oqlashiga intilyapmizki, maqsadimiz — odamlarni daromadli qilish.

**Shoiraxon SHAMATOVA,**
**Savdo-sanoat palatasi Sayxunobod tuman bo‘limi rahbari**

## HAR BIR MAHALLANING O‘Z DRAYVERI BOR

**Tomorqa va issiqxonachilik Sayxunobod tajribasining bir qismi, xolos. Tashabbus ortidan mahallalarda ixtisoslashuv, ya’ni odamlarning qiziqish va imkoniyatlaridan kelib chiqqan drayverlarni belgilab olib, rivojlantirish ham jadallashdi. Masalan, Paxtakor mahallasi uzumchilikka, Nurli yo‘l mahallasi issiqxonaga, O‘rikzor va Yangi hayot mahallalari baliqchilikka ixtisoslashtirildi. Tumanda tarmoqlar ko‘paydi, uy sanoati rivojlandi. Odamlar bir-biridan o‘rganib, havas qilib yangi loyihalarga qo‘l urmoqda. Tajriba nafasi ko‘pchilikni uyg‘otgani rost.**

O‘rikzor mahallasida istiqomat qiladigan Qobuljon Sattorqulov baliqchilikka qiziqa boshlagach, kitoblar, internet manbalari orqali yo‘nalishning sir-asrorini o‘rgandi. O‘tgan yilning boshida ozgina to‘plagan mablag‘i hisobidan quruq yerga basseynlar qurishni boshladi ham. Endi ishni yurgizib yuborish uchun yordam kerak. Davlatimiz rahbarining Sayxunobodga tashrifidan so‘ng bu masala birdaniga yechimini topdi. Hokim yordamchisining o‘zi Qobuljon akaning xonadoniga kelib, kredit olishni taklif qildi. Qisqa vaqtda 100 million so‘m imtiyozli kredit ajratildi. Bu mablag‘ evaziga chala qolgan ishlar tugallanib, may oyida 10 ta sun’iy suv havzasiga 10 ming dona Afrika laqqasi chovog‘i tashlandi. U kasallikka chidamli, muhitga tez moslashadi, asosiysi, kichkina joyda ham ko‘p yetishtirsa bo‘ladi. Yetishtirish davomida tashlangan chovoqning 30 foizi yo‘qolgan taqdirda ham, daromad o‘zini oqlaydi. Masalan, baliq chovog‘ining donasi 1000 so‘mdan bo‘lsa, tayyor baliqning kilosi bozorda o‘rtacha 20 ming so‘mdan sotilganda ham kichik basseynlardan 50-60 million so‘m topsa bo‘ladi. Baliqchilik daromadli yo‘nalish, faqat parvarishni to‘g‘ri va o‘z vaqtida olib borish kerak. Hamma ishda ham bilim va mehr bilan yondashilsa, natijasi ko‘rinadi. Fuqaro keyinchalik sazan, osyotr baliqlarini yetishtirish niyati ham bor. Baliqlar uchun zarur yemni xonadonida ishlab chiqarishni rejalashtirgan.

Umuman, tuman ahli mahsulot yetishtirishda anchagina tajriba to‘playapti. Yaqin yillarda ana shu mahsulotni qayta ishlaydigan korxona, zavodlarga ehtiyoj ortadi. Tumanga allaqachon kichik ishlab chiqarishlar kirib kelgan. Ular, o‘z navbatida, katta quvvatlar, sanoat rivojiga yo‘l ochib berdi. Shu vaqtgacha bo‘sh turgan ko‘plab binolar birin-ketin ishga tushirilmoqda.

Gap shundaki, bu binolarga avval imtiyozlar bo‘lmagan. Davlatimiz rahbari tashrifi davomida ana shu bo‘sh turgan bino-inshootlarning narxlarini tushirib, imtiyozlar qo‘llash topshirig‘ini berdi. Shundan so‘ng tumanga investorlar oqib kela boshladi. Aholi o‘z mahallasiga investor kelib, katta korxonalar qurishini tasavvur ham qila olmagan. Bugun esa shularga o‘zi guvoh bo‘lyapti. Yangi hayot mahallasida afg‘onistonlik investorlar tomonidan qurilayotgan parrandachilik kompleksida 100 nafar ish o‘rni yaratiladi. Turon mahallasidagi yillar davomida bo‘sh turgan tashlandiq bino ham yaqinda katta ishlab chiqarish korxonasiga aylanadi. Hududda yetishtirilgan mahsulotlar sotib olinib, shu yerda qayta ishlanadi. Tumanda shu kungacha 3 ta parrandachilik kompleksi ham tashkil etildi, yana bittasi ishga tushish arafasida. Bunday quvvatlarning yaratilishini Sayxunobod tajribasining ikkinchi qismi deyish mumkin.

Bu tajriba shunchaki tilda aytilayotgan tashabbus emas. Odamlar undan qanchalik to‘g‘ri foydalana olayotgani muhim, albatta. Ammo yanada muhimi shundaki, Sayxunobod tajribasi bitta tuman misolida butun mamlakatimiz aholisining farovonligini oshirish, imkoniyatlardan kengroq foydalanish, o‘zgarishlar nafasi har bir xonadonga kirib borishini ta’minlashga qaratilgan. Bu ezgu g‘oya ortida odamlarimiz to‘kin yashasin, kambag‘allik bo‘lmasin, har bir oila tadbirkorga aylansin degan maqsadlar mujassam. O‘ta og‘ir ahvoldan asta-sekin chiqib, rivojlanish tomon harakatlanayotgan Sayxunobod tumani va bo‘sh o‘tirmayotgan shu yerlik aholi buning yaqqol misoliga aylanmoqda.

**Tohir JAVLONOV,**
**O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Sayxunobod tuman bo‘limi boshlig‘i**

**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

## FAQAT HARAKAT QILISH ZARUR

**Sayxunobod tajribasi ortidan tuman ahli tomorqadan unumli foydalanishning hadisini oldi. Bugun ularning aksari yilda bir necha marotaba hosil yig‘ishtirib, yaxshigina daromad topyapti. Kimlar uchun bu qo‘shimcha mablag‘ manbaiga aylangan bo‘lsa, boshqalar agrotadbirkor darajasigacha chiqa oldi.**

Masalan, hovlimizda 10 sotix tomorqa maydoni bor. Shundan 4 sotixidagi kichik issiqxonada sabzi yetishtiramiz. Avval issiqxonamiz kichikroq edi, davlatimiz rahbarining tumanga tashrifidan keyin bankdan kredit olib, kengaytirdik. Shu joyning o‘zidan yilda ikki marta hosil olaman. May oyi oxirlarida sabzini yig‘ishtirib, makkajo‘xori ekamiz. Tomorqaning ochiq maydoniga bahorga yaqin kartoshka urug‘i qadaladi. Tomorqa qo‘shimcha daromad manbai. O‘zim bozorda savdo qilaman, kichik do‘konimiz ham bor, ammo mahalla ichida savdo biroz sust bo‘lgani sababli to‘xtab turibdi.

Oilada yagona boquvchiman. Otam kasallik sabab 9 oydan beri to‘shakka mixlangan. Onam keksayib qolgan, dalada ishlashga qiynaladi. Bolalarim esa hali kichkina. O‘zim o‘rta-maxsus ta’limni tamomlab, bir muddat maktabda jismoniy tarbiya fanidan dars berdim. Oylik maosh bilan ro‘zg‘orni tebratishga qiynalib, o‘zimni bozorga urdim. Tomorqa qo‘shimcha daromad manbai, yanada ko‘proq foyda olishimiz mumkin, ammo unda ishlaydigan odam yo‘q. Shu bois, olgan kreditimizni to‘lashga qiynalib qoldik. Ammo nolimayman, “Xudo beraman desa, dehqonchilik bir yilda”, faqat harakat qilish kerak.

**Umidjon XUDOYBERDIYEV,**
**“Olg‘abos” MFY fuqarosi**

* * *

Kun davomida Sayxunobod bo‘ylab qator mahallalarni aylandik. Yo‘llarning ancha ta’mirtalabligidan biroz shikoyat qilgan ham bo‘ldik. Mavsumdagi yog‘ingarchiliklar yo‘llardagi notekislikni yanada yaqqolroq ko‘rsatib qo‘ygandek. Ammo xonadonlarda tomorqalar to‘liq qishki “uyqu”ga ketmagan. Ba’zi issiqxonalarda mahsulotlar pishib turgan bo‘lsa, ayrimlarida ko‘chatlar ekilib, parvarishlanyapti. Aholining aksari tomorqasini yanada kengaytirishga talabgorligini ko‘rdik. Odamlar dehqonchilik, tomorqa va issiqxonaga avvalgidek hafsalasizlik bilan emas, balki daromad manbai sifatida qarayapti. Oddiy insonlar qisqa vaqtda tadbirkorga aylanayotganiga tuman ahlining o‘zi yaqqol misol. Shubhasiz, bu tajriba yaqin yillarda yurtimiz bo‘ylab keng ommalashadi.

Hamrohimiz Tohir akaga “Tumanda tadbirkorlarning ko‘payayotgani yaxshi, daromadi ortsa, mana shu yo‘llarni ham tekislashga hissa qo‘shadi”, deb ezgu niyat bildirdik.

**Qo‘sh sahifani “Yangi O‘zbekiston” muxbiri Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.**

Ehtirom

**Ibrohim G‘afurov o‘zining beqiyos ijodiy va ijtimoiy faoliyati bilan el-yurtimizga juda katta xizmat qilgan ulug‘ zamondoshimizdir. Ishonamanki, u kishi bundan keyin ham o‘zining yangi-yangi go‘zal va barkamol asarlari bilan barchamizni, butun xalqimizni xushnud etadi.**

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

# MA’NAVIYAT UFQLARINI YORITUVCHI IJOD

Nashr etila boshlaganiga 5 yil to‘lishi arafasida turgan “Yangi O‘zbekiston” gazetasining faol, kuyinchak va sadoqatli bir muallifi bor. Bu — O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov. Uning maqolalari, esse va suhbatlarini mushtariylarimiz kutib, sog‘inib mutolaa qiladi. Negaki yuksak tafakkur egasi bo‘lmish bu zakiy insonning doim odamlarga aytadigan o‘z gapi bor. Gapki, salmoqli va zalvorli.

“Vatanparvarlik va millatparvarlik singari e’tiqodiy hodisalarni ham faqat ma’naviyat bilan chambarchas bog‘lagan va undan zarracha ayrilmagan holdagina tushunish, shunga yarasha sa’y-harakatda bo‘lish har bir xalq uchun chin mo‘jizalar yaratadi. Ma’naviyatdan mahrum vatanparvarlik va millatparvarlik o‘z-o‘zinigina ko‘r-ko‘rona sevishga, dimog‘dorlikka, takabburlikka olib boradi, aslini olganda, takabburlikning jaholatdan sira farqi yo‘q. Takabburlik ham, jaholat ham, o‘zgalar haq-huquqlarini mensimaslik, bepisandlik ham ma’naviyatsizlikdan hosil bo‘ladi”, deb yozadi Ibrohim G‘afurov maqolalarining birida.

Yana bir narsa bilan maqtanish mumkin. Adabiyotshunos, munaqqid, tarjimon ustoz nafaqat “Yangi O‘zbekiston” gazetasining muallifi, balki e’lon qilinayotgan ko‘plab maqolalarning qahramoni hamdir. O‘tgan yili nashrning 4-aprel sanasidagi sonida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Ashurali Jo‘rayevning “Ibrohim G‘afurov va kitob” essesi chop etilgan edi. Ibrohim akaning hayot yo‘li, ilm zahmatlari, uni yuksak mavqega ko‘targan omillar tahliliga bag‘ishlangan maqola ko‘plab e’tiroflarga sabab bo‘ldi.

Adabiy jamoatchilik Ibrohim G‘afurovni o‘zbek tarjimachilik maktabining munosib davomchisi, uni yanada yuksak pog‘onalarga olib chiqqan tarjimon sifatida biladi va hurmat qiladi. U Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Izzat Sulton, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘shjonovning yuksak mahorat bilan yaratib ketgan ijod maktablari yonida ustozlarga ehtirom keltirib, o‘zining tafakkur va fikr sarhadini bunyod etdi.

— Men shunday kunlar kelishini kutmoqdaman: navqiron o‘zbek yigit-qizlari badiiy tarjima sohasida katta-katta yutuqlarni qo‘lga kiritib, ko‘kraklariga davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ta’sis etilgan Ogahiy mukofotining sharafli nishonlarini munosib tarzda taqib, xalqaro tarjima anjumanlarida faol ishtirok etadilar, bu umuminsoniy madaniyat ravnaqiga o‘z e’tiborli hissalarini qo‘shib boradilar, — deydi qahramon munaqqid.

Kecha Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobining tavalludiga 88 yil to‘lishi munosabati bilan bo‘lib o‘tgan “Ibrohim G‘afurov — adib, munaqqid, tarjimon” mavzusidagi ilmiy-adabiy anjumanda ishtirok etib, xayolimizdan shu gaplar o‘tdi.

Adabiy kechada so‘zga chiqqan taniqli yozuvchi, shoir, munaqqidlar Ibrohim G‘afurovning ibratli hayot va ijod yo‘li haqida, bugun ham shogird hamda safdoshlariga berib kelayotgan saboqlari borasida dil so‘zlarini izhor qildi. Uning publitsist, tarjimon, tahrirchi, muharrir, adib sifatidagi mahorati va mehnatlari e’tirof etildi.

— Ibrohim akaning badiiy ijodi haqida ko‘p aytildi, — deydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, tarjimashunos olim Zuhriddin Isomiddinov. — Men uning gazetachilik faoliyati, maqolalari haqida to‘xtalmoqchiman. Gazetani qanday shakl-shamoyilda chiqarish, maqolani qanday yozish va tahrir qilish bobida ham u barchaga namuna. Ibrohim G‘afurov imzosi bilan yozilgan maqolalarni maqola deyishning o‘zi yetarli emas — uning ma’naviyatimiz ufqlarini yorituvchi maqolalari ijodiy jazava bilan yozilgan va manifest darajasiga chiqqan ijod namunalaridir.

**Nodir MAHMUDOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Iftixor

**Buxorolik Aziza Tojiyeva an’anaviy hunarmandlik mahsulotlarini internet orqali xalqaro bozorda faol sotayotgan yurtdoshlarimizdan. 24 yoshli tadbirkor ko‘p asrlik hunarmandlik ishlariga zamonaviylik bag‘ishlashda raqamli texnologiyalardan keng foydalanmoqda. U qo‘l mehnati namunalarini turli ijtimoiy platformalar orqali onlayn sotyapti.**

# QADIMIY HUNARNING YANGI QIYOFASI

Davlatimiz rahbari shu yil 16-yanvar kuni investitsiyalarni keng jalb etish va eksport hajmini oshirish borasidagi ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi asosiy vazifalar muhokamasi bo‘yicha o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida xalqaro marketpleyslar orqali mahalliy mahsulotlarni ilgari surish uchun 2 million dollar yo‘naltirilishini aytdi. Demak, davrning o‘zi qahramonimiz kabi ish tutish, xalqaro bozordan o‘z o‘rnini topish vazifasini qo‘ymoqda. Aziza Tojiyeva yo‘lga qo‘ygan savdo usuli mahalliy mahsulotlarimiz qiymatini oshirishning optimal yechimlaridan.

Azizaning milliy mahsulotlar eksporti borasidagi yetakchiligi CNN nashrida chop etilgan maqolada e’tirof etilgani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Maqolada yurtimizda so‘zanachilik jonlanishi, hunarmandlarning jahon bozoriga chiqishida zamonaviy texnologiyalar muhim o‘rin tutishi haqida aytiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlarining asrlar davomida kashtachilik bilan shug‘ullanib kelgani va bu faoliyat bugun ham davom etayotgani tilga olingan.

Haqiqatan, Buxoroning ko‘pgina qadimiy hunar turlari bugungacha avloddan avlodga o‘tib kelishi tufayli ko‘plab oilalarning daromad manbaiga aylangan. Qahramonimiz kashta tikishni onasi Muhabbat Qo‘chqorovadan, Muhabbat opa esa o‘z onasidan o‘rgangan. Sulolaning munosib davomchisi zamonga monand shakllanib, ustozlaridan-da o‘zayotir. Ayni paytda u kichik tadbirkorligi ortidan 200 dan ziyod ayolning kasanachilik orqali bandligini ta’minlagan. Ular shu ishdan oilasiga daromad olib kiryapti. Tadbirkor qizga buyurtmalarning aksariyati AQSHdan tushsa-da, Ispaniya, Italiya va Buyuk Britaniyada ham mijozlari bor. Savdo hajmining o‘sishi, buyurtmachilar talabini ta’minlash oilaviy korxonani qishloqlardagi ayollar bilan hamkorlikni yanada kengaytirishga undaydi. Oddiy qishloq ayollari yasagan buyumlar esa xorijliklar e’tirofiga sazovor bo‘layotir.

— O‘zbek hunarmandlari benihoya hayratimni oshiryapti. Kashtachilik bilan shug‘ullanayotgan xonadonga kelib, hunarmandlarning ijod namunalari qo‘lda yaratilayotgan mo‘jiza ekanini angladik. Bunday mehnatning qadrini biladigan bozorni topish muhim masala. Shu ma’noda, biz bu mahsulotlarga qanday qilib xaridor topishni o‘rgatishimiz, qanday qilib Yaponiya, Yevropa bozoriga olib chiqish yo‘llarini izlashimiz kerak. 100 foiz tabiiy mahsulotlar dunyoning nufuzli brendlariga raqobatbardosh bo‘lishi uchun bunday tadbirkorlar bilan tizimli ishlaymiz. Tavsiyalarimiz yurtingizdagi qadimiy hunarlar sabab yasaladigan mahsulotlarga xorij bozorlaridan doimiy joy topishga yordam berishiga ishonchim komil, — dedi Yaponiyaning Yamaga universiteti huzuridagi “Tadbirkorlar uchun ta’lim va tadqiqot” markazi direktori Tadashi Onoredo.

Ha, bugun onlayn platforma imkoniyatlari sabab hunarmandlik eksporti geografiyasi ham kengayyapti. Shu bois, qahramonimizning hunari ortidan qilmoqchi bo‘lgan ishlari, maqsad va niyatlari juda katta. Zero, uning birgina Etsu sahifasida yostiqlardan tortib, yirik buyumlargacha mahalliy narxdan ancha qimmat sotilyapti. Bu esa nafaqat Aziza Tojiyeva, balki barcha hunarmandlar foydasiga, turizm rivojiga xizmat qiladi. O‘rni kelganida aytish joiz, yaqindagina dunyoning eng nufuzli nashrlaridan biri — AQSHning “The New York Times” gazetasi 2025-yilda tashrif buyurishga arziydigan 52 ta joy ro‘yxatini e’lon qildi. Ushbu ro‘yxatda O‘zbekistonning qadimiy shaharlaridan Buxoro tarixiy markazi 22-o‘rinni egalladi. Ro‘yxatda xalqaro va o‘zbekistonlik ijodkorlar ishtirokida o‘tkazilishi rejalashtirilgan birinchi Buxoro biyennalesi haqida batafsil ma’lumot keltirilgan. Tadbir joriy yilning 5-20-noyabr kunlari shaharning tarixiy hududida tashkil etiladi hamda zamonaviy san’atga bag‘ishlanadi. YUNESKOning Umumjahon merosi obyekti sifatida e’tirof etilgan bu shahar boy tarixi, hunarmandlar va shoirlari bilan dunyoga mashhur. Tadbir mehmonlari uchun qayta ta’mirlangan karvonsaroy uslubidagi mehmonxonalar, madrasalar va ko‘p asrlik islom me’morchiligi durdonalari katta qiziqish uyg‘otishi kutilmoqda. O‘zbekiston turizmining ko‘rki bo‘lgan qadim Buxoro hunarmandlari ayni tadbirda ham qo‘l mehnati mahsullarini keng namoyish etadi.

Buxorolik hunarmand Aziza Tojiyeva haqida ushbu bitiklarni yozayotgan paytimiz namanganlik 8-sinf o‘quvchisining kulollik ishlarini dubayliklar sotib olganidan xabar topdik. Uning muvaffaqiyati maqolamiz mavzusiga bog‘liq bo‘lgani uchun Mohiniso Barotboyeva haqida ham qisqacha aytib o‘tgimiz keldi.

Olti yoshidan buyon kulollik bilan shug‘ullanib kelayotgan Mohiniso Yangiqo‘rg‘on tumanidagi 36-maktabda o‘qiydi. Ona tomondan bobolari taniqli hunarmandlar bo‘lgan. Shu bois, qizda o‘zgacha did, noodatiy uslub bilan dekorativ buyumlar yasash qobiliyati bor. Kulollik buyumlarini yasashda u, asosan, shamot loyidan foydalanadi. Hunari orqasidan shu kungacha 20 million so‘mdan ortiq daromad topdi.

Mahsulotlari bilan yuzlab tanlovda qatnashgan Mohiniso besh yildan buyon “Kamalak yulduzlari” tanlovida birinchilikni bermay kelyapti. Samarqand shahrida o‘tkazilgan “Sharq gavhari” musiqa va san’at tanlovida “Samarqand ayollari san’ati” nomli ijodiy ishi bilan Gran-pri sohibasi bo‘ldi. Onasiga qo‘ng‘iroq qilgan paytimiz u “Yangi yulduzlar” tanlovi oldidan intervyu berayotgan ekan. Qizning milliyligimizni aks ettirgan haykalchalari dubaylik san’at ixlosmandlariga yoqib qolgani esa hammasidan ham kutilmagan holat. Qiz yasagan bitta buyum 700 dollarga sotildi. Shu tariqa milliy buyumlarimizni mehmonlar o‘z vataniga olib ketdi. Ular o‘ziga yoqqan qo‘l mehnati namunalarini sotib olganidan, biz esa amaliy san’atimiz, milliy hunarmandligimiz dunyoga tanilayotganidan xursandmiz. Yaqin kelajakda Mohiniso singari, Aziza Tojiyeva kabi ko‘plab yosh hunarmandlar onlayn bozorda yetakchilarga aylanishiga ishonamiz.

**Munojat MO‘MINOVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Ko‘zgu

# FUQAROLIK POZITSIYASI

## YOXUD ODAMIYLIK SABOG‘IDA HOLIMIZ QANDAY?

**Keyingi vaqtlarda jamiyatimizda huquqiy savodxonlik bir qadar yuksaldi. O‘tgan yilgi saylovlarda partiyalar g‘olib bo‘lish uchun keragicha harakat qildi, har bir fuqaro ovozi uchun munosib kurashdi. Bundan xulosa qilish mumkinki, odamlardagi befarqlik hissi kamayib bormoqda. Bir so‘z bilan aytganda, fuqarolik pozitsiyasi shakllanyapti.**

O‘tgan yakshanba ro‘zg‘orga bozor-o‘char qilib, avtobusda qaytayotib, qiziq bir holatning guvohi bo‘ldim. Yoshi elliklar chamasidagi yo‘lovchi ayol beozor yengimdan tortdi:

— Yaxshimisiz, bolajonim? Yo‘lkartam uyda qolib ketibdi. Siz o‘zingiznikidan to‘lab tura qoling, men sizga naqd pul beraman.

— Xo‘p, — dedim va o‘zimning kartamdan u uchun ham to‘ladim.

Suhbatimizni eshitib qolgan haydovchi:

— Rahmat, opa. Hozir kamerada sizni kartasiz olib ketayotganim ko‘rinsa, mengayam jarima yozilardi, — dedi.

— Siznikiyam ish, bolam, to‘g‘ri tushunaman: hammada bola-chaqa, uy-ro‘zg‘or bor. Yetimning haqi, musofirning haqi va yo‘l haqini bermaslik yomon, deb aytishadi-ku. Davlatimiz shuncha sharoit qilib berdi, biz ham shunga mos bo‘lishimiz kerak.

Ayolning bunday vaziyatda yo‘lovchi sifatida o‘zi va o‘zgalar uchun oqilona yo‘l tutganini ko‘rib, xursand bo‘ldim. Bu yurtdoshlarimiz orasida fuqaroligini teran anglaydigan, huquq va majburiyatlarini yaxshi biladigan odamlar soni oshib borayotganidan darak beradi. Qarang, yaqinda yo‘l haqini to‘lash tartibiga kiritilgan o‘zgarish jamiyat uchun nechog‘liq muhimligiga e’tibor beryapti. Demak, jamiyatda fuqarolik pozitsiyasi oshib boryapti.

Bir qarashda jimjimador iboraga o‘xshab ko‘rinadigan fuqarolik pozitsiyasi haqida qisqacha to‘xtalsak. Fuqarolik pozitsiyasi odamlarning o‘zi mansub jamiyat qonun-qoidalariga amal qilish asnosida rioya etadigan burch va mas’uliyati, ayni chog‘da jamiyatda qonunlarning ishlashi natijasida ega bo‘ladigan huquq va vakolatlaridir. Masalan, mazkur oddiygina hayotiy holat odamlarning o‘zi va boshqalar oldidagi burch va mas’uliyati naqadar oshib borayotganini ko‘rsatadi.

O‘z-o‘zidan oydinlashadiki, taraqqiyot kuchli tartib, odamlarning yangilikni qabul qilishi va burchini his etishi orqali ta’minlanadi.

Joriy yilning Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil” iqtisodiyot yili deb nomlanishi ham fuqarolik pozitsiyamizni yana bir bor namoyish qilish kerakligini anglatadi. Ba’zan ko‘cha-ko‘yda, ariqlarda yoxud boshqa jamoat joylarida chiqindilar ko‘zga tashlanishi odamning ko‘nglini xijil qiladi.

“Poklik — yarim imon”, deydi dono xalqimiz. Ming yillar davomida ariqlarimiz hashar yo‘li bilan tozalangan. Bu ham qaysidir ma’noda xalq birligining ramzi. Shuningdek, fuqarolik pozitsiyasining muhim belgisidir. Bugungi zamonaviy dunyoda bu amallarning kuni tugaganday ko‘rinadi. Ammo obodlikka hissa qo‘shish har bir insonning burchi bo‘lib qolaveradi. Zero, tozalikka, tabiatni asrashga muhabbat xalqimizning shuurida bor xislat.

Mashhur yozuvchimiz Shukur Xolmirzayevning “O‘zbek bobo” degan hikoyasi bor. Unda lafzi halol, yolg‘ondan hazar qiladigan, birovning haqiga xiyonat qilmaydigan mard bobo haqida so‘z boradi. Uni o‘qib, shunday bobolari borligidan faxrlanadi kishi. O‘zbek bobo uysiz qiynalib yurgan Qismatulloga butun boshli hovlisini yashash uchun beradi. “Shunday kunda yaramasa, el nega kerak?!” deydi qahramon tilidan yozuvchi. Uning butun turish-turmushi hammamiz uchun bemalol o‘rnak bo‘ladi.

Qishlog‘imizda har yili bahor kelishi bilan o‘tkaziladigan oshxudoyi degan an’ana bor. Unga ko‘ra, har uyning bir erkagi chiqib, qabristonlarni tozalash, ariqlar qazish, eski umumiy inshootlarni ta’mirlash ishlarida qatnashadi. Bularni bajarish hech qaysi qonun yoki hujjatda aks etmagan, aksincha, ota-bobolardan kelayotgan qadriyat o‘laroq odamlar ruhiyatiga tabiiy singgan. Ya’ni odamlarda bir avlod sifatida qadriyatlarga hurmat, ayni chog‘da o‘z uyingni o‘zing asra qabilidagi mas’uliyat tuyg‘usi yashab kelgan. Hashar yo‘li bilan hal bo‘ladigan bunday ishlarga ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Ammo yana bir jihat bor: ayrim vaziyatlarda ba’zi yurtdoshlarimiz qonun va qoidalarga, tartiblarga behurmatlik qilayotganini, ularni chetlab o‘tishga urinayotganini ko‘rib, hayron qolasiz kishi. Nahot ular har bir tartibsizlik bumerang singari olisga ketganday ko‘rinsa-da, o‘ziga qaytib kelishini tushunmaydi?! Ya’ni bugun kimdir qaysidir qonunni chetlab o‘tyaptimi, bu jamiyatda zanjir halqasini hosil qiladi va aylanib o‘sha qonunbuzarning manfaatini himoya qilishi kerak bo‘lgan joyda pand beradi.

Hazrat Alisher Navoiyning bunday bayti bor:

Odami ersang demagil odamiy,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Navoiy bobomiz kishi shunday yashashi kerakki, uning xalq tashvishidan ortiq g‘ami bo‘lmasligi lozim, deyapti. Biz fikrimiz avvalidan beri aytmoqchi bo‘lgan fuqarolik pozitsiyasi asli mana shu edi...

**Sardor TOLLIBOYEV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 129.
38993 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 21:40 Topshirildi — 23:40

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05